

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI  
BOSHLANG`ICH TA`LIM VA SPORT TARBIYAVIY ISH  
YO`NALISHI

**13.419 -guruh bitiruvchisi**

Xoshimova E`zoza Hudoberdi qizining  
“Boshlang`ich sinf o`quvchilarining yozma nutqini  
rivojlantirish, xatolar ustida ishlashga kreativ  
yondashish” mavzusidagi

**BITIRUV MALAKA VIY  
ISHI**

Ilmiy rahbar: dotsent D.Yuldasheva

Farg`ona – 2017

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2017 yil 11 maydagi yig`ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

M.Abdupattoyev

Taqrizchilar :

1. D. Yuldasheva

2. Fag'ona shahar 34- umumi o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi J.Eraliyeva

## MUNDARIJA

Kirish .....	4
I bob. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish ahamiyati	
1.1. Imlo mashqlari va yozma ishlarda yozuvga o`rgatishning kreativ usullari....	9
1.2. Yozma nutqqa qo'yiladigan talablar.....	21
II bob. Nutqiy xatolar va ularni bartaraf qilish yo'llari xatolar ustida ishlashga kreativ yondashish	
2.1. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining savodxonligini oshirish usullari.....	28
2.2. Nutqiy xatolar va ularni bartaraf qilishning kreativ yo'llari.....	43
2.3. Tajriba-sinov ishlari.....	61
Xulosa.....	65
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	67

## KIRISH

Barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Biroq dunyo xalqlarining barchasi ham bu haqda o'ylayvermagan. Bunday orzudagi insonlar azaliy-azaliy ma'rifatga, madaniyatga mansub bo'lган yurtlarning donishmandlari – eng mo'tabar ziyolilari hisoblangan. Ularning orasida O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobolarimizning o'z o'rni, hurmati bor. Bu jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan haqiqatdir. Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Bu haqda "Ota-bobolarimiz qadimdan bebahо boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lif va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan", – deb yozgan edi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asarida (60-bet). Ona tili o'qitishning bosh maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinali va unumli foydalanish ko'nikma malakalarini hosil qilish; mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish; milliy istiqlol g'oyasini, sharqona tarbiyani shakllantirish; o'quvchi shaxsini ma'naviy boyitishdan iborat. Jumladan, 2017 yil 7 fevral kuni prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo'yicha beshta ustuvor yo`nalish belgilab berdi. Uning to`rtinchи yo`nalishi: "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlanadi. Mazkur yo`nalishda ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida**" 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarorida: "Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli (muayyan ta'lim muassasalari uchun) tayyorlash tizimini joriy etib, tegishli sharoit yaratish" kabi masalalar o`rin olgan.

**MAVZUNING DOLZARBLIGI.** Boshlang`ich ta`lim konsepsiyasida o`quvchilarining o`zlashtirish jarayoni ularning o`qish va yozish ko`nikmalarini qay darajada egallaganliklariga bog`liq ekanligi ta`kidlanadi. Agar o`quvchi boshlang`ich ta`lim jarayonida tez hamda ongli o`qish malakasini egallasa, chiroyli yozuv ko`nikmasiga ega bo`lsa, savodxonligi yuqori darajada bo`lsa, u yuqori sinflarda albatta a`lochi, iqtidorli o`quvchiga aylanadi. Bu esa, “Boshlang`ich sinf o`quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish, xatolar ustida ishlashga kreativ yondashish” mavzusida bitiruv malakaviy ishning dolzarbligini ko`rsatadi.

Ma'lumki, boshlang`ich ta`lim barkamol avlodni tarbiyalashdagi muhim bosqich hisoblanadi. Shuning uchun boshlang`ich ta`limga e'tibor va yangicha yondashuv xalq ta'limining diqqat markazidagi vazifalardan biridir. Boshlang`ich ta`limda yozuv malakalarini rivojlantirishning samaradorligi o`quvchilarda o`ziga xos tarzda tarkib topgan ta`limiy faoliyatning shakllanish darajasiga bog`liq. Bunday faoliyat nazariy bilimlarni o`zlashtirish jarayonida, o`qituvchi rahbarligida chiroyli yozuvga o`rgatiladi va muntazam ravishda shakllantirilib boriladi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishning samaradorligini ta'minlashda o`qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik kasb mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang`ich sinf o`qituchisi barcha pedagogik-psixologik vositalarni qo'llagan holda kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda yaxlit tarzdagi o`quv faoliyatini shakllantira olishi kerakligi bugungi kunda barchaga ayon. Bu o`quv faoliyati natijasida fonetik-grafik, grammatik, orfografik va orfoepik tushunchalar ustida ishlashda shakllansa, o`quvchilarining og'zaki va yozma nutqidagi nuqsonlar yo'qola boradi.

O`quvchilar ilk bor mакtabga qabul qilinganlaridan boshlab ularning og'zaki va yozma nutqiga e'tibor kuchaytiriladi. Dastlabki sinflardan boshlab o`quvchilarining husnixat malakalari ustida ishlash, ularga chiroyli yozuv qoidalarini o`rgatib

borish, alifbodagi har bir harfni yozuvda to'g'ri va aniq ifodalab berishga o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchisidan juda katta mas'uliyatni talab qiladi.

Ma'lumki, insoniyat tomonidan yaratilgan eng katta kashfiyotlardan biri bu – yozuvdir. Yozuv inson tomonidan hayotiy ehtiyojlar va zaruriyatlar tufayli o'ylab topildi va insoniyatning o'ziga, jamiyatning mislsiz taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda. Yozuv fikrni tovush yetmaydigan joy va kelajakka yetkazish ehtiyojidan kelib chiqqan. Shunday qilib, yozuv insoniyat tarixini kelajak avlodga yetkazib berishdek juda katta vazifani bajarib kelayotgan buyuk ne'matdir.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning husnixat malakalari ustida ishslash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1-sinf o'quvchilari "Alifbe" gacha bo'lgan davrda tayyorgarlik mashqlari bilan tanishadilar. "Alifbe" davrida 70 soat mobynida yozuv mashg'ulotlarida barcha harflar bilan mukammal tanishadilar.

"Savod o'rgatishning ilk bosqichida o'qituvchi oldida so'zlarning yozuvda ifodalanishi, harf va tovush haqida tushuncha, so'zni bo'g'in va tovushlarga ajratish, bog'lanishli nutqni o'stirish, boshlang'ich orfografiya qoidalari xususida tasavvurni rivojlantirish, umuman, ona tilining go'zalligi va rang-barangligini anglatishdek muhim vazifa turadi", deb ta'kidlanadi R.Safarovning "Savod o'rgatish darslari" nomli asarida.

Umumiyl o'rta ta'limning Davlat ta'lim standariti va o'quv dasturida husnixat darslariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Yozuv vaqtida gigiyenik malakalarni (to'g'ri o'tirish, yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish) hosil qilish.
- Ikki chiziqli daftarda chiroqli yozuv qoidalariiga rioya qilgan holda yozish malakalarini egallash.
- O'quvchilarning chandalash qobiliyatlarini o'stirish, harflarning balandligi va kengligini to'g'ri yozish.

- Kichik va bosh harflar guruqlarini asta-sekin murakkablashtirib borish tartibida yozish.
- So'z va kichik gaplarni ritmik yozish.

O'quv yili davomida o'rganiladigan imlosi qiyin bo'lган quyidagi so'zlarning talaffuzi va yozilishini bilib olish: alifbo, vazifa, Vatan, dars, daftар, do'st, yomg'ir, ...”.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi.** “Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish, xatola ustida ishlashga kreativ yondashish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining maqsadi shundan iboratki, yozuv vaqtida gigiyenik malakalarni (to'g'ri o'tirish, yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish) hosil qilish, ikki chiziqli daftarda chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilgan holda yozish malakalarini egallash usullarning ahamiyati kabi masalalarga oydinlik kiritish sanaladi.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Oldimizga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak:

- yozuv malakasi tushunchasini izohlash va aniqlash;
- o'quvchilarning chamalash qobiliyatlarini o'stirish, harflarning balandligi va kengligini to'g'ri yozish ahamiyatini ko`rsatish;
- yozuv gigiyena va qoidalari haqida ma`lumot berish;

**Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti** sifatida boshlang`ich ta`lim jarayoni, xususan husnixat, ona tili darslari tanlangan.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** Boshlang`ich ta`lim jarayonida qo'llanilanayotgan husnixat metodlari, chiroyli yozuvga o`rgatish usullar bitiruv malakaviy ishining predmeti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Mazkur ishdan boshlang`ich ta`lim jarayonida foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining metodlari:** ilmiy-nazariy, uslubiy manbalarni saralash hamda pedagogik , analitik tahlil qilish, tavsiy bayon.

**Ishning tuzilishi** kirish, 2 ta asosiy bob, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan.

# I BOB. BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI

## 1.1. IMLO MASHQLARI VA YOZMA ISHLARDA YOZUVGA O`RGATISHNING KREATIV USULLARI

Ma`lumki, kreativ atamasi yunoncha so`z bo`lib, ijodkorlik ma`nosini ifodalaydi. Kreativ yondashuv tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo`lib, o`quvchilarda maqsadga yo`naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantirish maqsadida o`tkaziladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish hamda xatolar ustida ishslashda o`ziga xos uslub, ijodiy yondashish kreativlik vujudga keltiradi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish savod o`rgatish davrida yozuvga o`rgatish bilan boshlanadi. Umumiyo`rta ta'limning Davlat ta'lim standarti (DTS) va o`quv dasturining “Boshlang`ich ta'lim” yo`nalishi talabiga ko`ra, 1 - 4-sinflarda husnixat mashg`ulotlari o`tiladi. Dasturga ko`ra, 1-sinfda yozuvga o`rgatish uchun 70 soat ajratilgan, bu sinfda husnixatga o`rgatish savod o`rgatish bilan bir paytda amalga oshiriladi. Bunda o`quvchilar husnixatning gigiyenik talablariga rioya qilishlari, harflarni grafik jihatdan to`g`ri shakllantirishlari, ulashlari, ritm asosida yozishlari nazarda tutiladi. 1-sinfda xat-savod o`rgatish davrida bolalar yozuvga bevosita “Yozuv daftarlari”dagi materiallar asosida o`rgatiladi. 1-sinfda o`quv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo`lib, u bir necha davrlarga bo`linadi va bir necha vazifalarni o`z ichiga oladi. Bolalar o`qituvchining so`zini tinglaydilar, ayrim matnlarni ko`chirib yozadilar, so`z va bo`g`inlarni tahlil qiladilar. O`quvchilarda chiroyli, aniq va toza yozuvga qiziqish va muhabbat uyg`otish uchun, birinchi navbatda, o`qituvchining o`zi chiroyli yozishi lozim, bu sohada o`quvchilarning taqlidchanligini unutmaslik lozim. Savod o`rgatish jarayonida o`quvchilar o`qishga o`rganish bilan parallel ravishda yozuvdan ham elementar malaka hosil qiladilar. Dasturga muvofiq o`quvchilar yozuvdan quyidagi malakalarni egallashlari lozim: analitik-sintetik tovush metodi tamoyiliga muvofiq, o`qish va yozuv birligi saqlanadi. Harflarni yozishda o`qishga o`rgatishdagi tarkib asos qilib olinadi, ya`ni o`qish darsida

o‘quvchilar harfni o‘zlashtiradilar, matnni o‘qiydilar, yozuv darsida esa shu harfli so‘zni yozadilar.

1. Turli shakllar andozasi ustidan chizish. Erkin rasmlar chizish. Yozuv qurollarini to‘g‘ri tutish, turli qiya elementlar chizish, uzunlikni, oraliq masofani chamlash va hokazo.
2. Harf elementlarini yozish, baravar masofada qisqa va uzun elementlar, osti va usti ilmoqli elementlar chizish.
3. Bosh va kichik harflarni alohida yozish.
4. Harf birikmalarini, bo‘g‘inni yozish, harflarni to‘g‘ri yozish malakasini hosil qilish uchun so‘z yozish.

Yozuv qurollari va ulardan foydalanish. Dastur talablari bo‘yicha 1-sinf o‘quvchilari «Alifbe» kitobiga ilova tariqasida chiqarilgan «Yozuv daftari»dan foydalanishlari lozim. «Yozuv daftari» sifatli qog‘ozdan ishlangan, silliq va chiziqlari aniq ko‘rinib turadigan bo‘lishi lozim. Daftardagi qiya chiziqlar oralig‘i **25 mm**, qiyaligi **65°**, kichik harflar yoziladigan satr chizig‘i oralig‘i **5 mmga** teng bo‘lishi lozim. O‘quvchilar uchun tavsiya etiladigan sharikli yoki gelli avtoruchkalarning yo‘g‘onligi ularning qo‘l barmoqlariga mos bo‘lib, uzunligi 130 mmdan oshmasligi lozim. O‘quvchilar yozuvining sifati ko‘p jihatdan yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yozuv qurollariga bog‘liq. **Yozuv sifatini shakllantirish:**

- Yozuv sifatini aniq va toza, bir xil qiyalikda va balandlikda bo‘lishini, bir tekis silliq yozilishini shakllantirishda
- Harf unsurlari va harflarni to‘g‘ri bog‘lab yozish
- Sinfdagagi barcha o‘quvchilarni bir xil tezlikda ravon qilib yozishlariga erishish
- Yozuvni  $65^{\circ}$  qiyalikda yozishga o‘rgatish
- Har bir qator dagi harflarning bir xil balandlikda bo‘lishiga erishish
- Harf unsurlari, harflar va so‘zlar orasidagi masofalarni bir xilda saqlash

O‘qish va yozuv darslari bir - biri bilan uzviy bog‘lanib, o‘qish darsi o‘quvchilarni yozuv darsiga tayyorlaydi, yozuv darsi oldingi o‘qish darsining davomi sifatida xizmat qiladi. Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar bilimi dars jarayonida barcha ishlarga bog‘lab aniqlanadi. Bog‘lanishli nutqni o‘stirish ham o‘qish va yozuv darslariga uzviy bog‘lanib ketadi. O‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishlari uchun haftada bir marta 20 daqiqa ajratiladi. Savod o‘rgatish darslarida vaqtı-vaqtı bilan dam olish daqiqalari o‘tkaziladi. Bu jarayon sistemali bog‘lanib olib boriladi. Darslar sistemasi deyilganda o‘quv vaqtini mavzularga nazariy va amaliy jihatdan rejali taqsimlanganligi, darslarning mantiqiyligi va istiqboli bir-biri bilan bog‘langan dars turlari va unda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar foydalilaniladigan asosiy metodik vositalar xilma-xil bo‘lgan izchillik nazarda tutiladi. Amaldagi "Alifbe" darsliklari va ularga yozilgan qollanmalarga asosan savod o‘rgatishda tayyorgarlik davri uchun 5 dars, alifbedan so‘nggi davrga ham 5 dars ajratiladi. Oraliq davr alifbe davri hisoblanadi. "Boshlang‘ich ta‘lim" dasturida yozuvga o‘rgatish o‘qish darsi bilan yozuv darsini chambarchas bog‘lashni maqsad qilib qo‘yadi. O‘quvchilar o‘qish darsida "Alifbe" kitobidagi tayyor bosma harflardan foydalansalar, yozuv darsida bu narsalar ko‘rinmaydi. Har bir harf va uning unsurini o‘quvchilarning o‘zi namunaga qarab bajarishlari kerak. Harf va uning unsurlari orasidagi masofani to‘g’ri saqlash hamda daftarga bir tekis yozish endigina yozishga o‘rganayotgan o‘quvchi uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shuning uchun ham bu sinfda yozuvga o‘rgatish bir qator tushunchalarni bilishni talab etadi. Masalan, baland-past, bir xil, keng-tor, uzoq-yaqin, yuqoriga, pastga, o‘ngga va hokazo. O‘qituvchi yozishga o‘rgatishdan oldin o‘quvchilar bilan yuqorida qayd etilgan tushunchalar ustida ish olib borishi lozim. Bu o‘quvchilarga harflarning shaklini, uning xarakterini yaxshi tushunishlariga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, yozish malakasi o‘qishga qaraganda ancha murakkabdir. O‘qishning birincha haftalaridagi tayyorgarlik mashqlari, asosan, og‘zaki nutqni o‘stirishga qaratiladi. Ammo butun bir soatlik dars davomida og‘zaki nutq bilan shug‘ullanish bolalarni zeriktirib qo‘yishi mumkin. Bu davrda husnixatga oid tayyorgarlik mashqlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To‘g‘ri yozuv – maxsus nutq faoliyati; yozuv ham murakkab harakat bo‘lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to‘g‘ri tuzish, so‘zni uslubiy aniq qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi.

Imloviy malaka murakkab malaka bo‘lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so‘zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko‘nikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya’ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o‘rganilgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bog‘liq. Imloviy malaka o‘z tabiatini bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo‘yilgan ko‘nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq va to‘g‘ri bo‘la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning tuzilmasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishslash kengroq, butun, qo‘shilgan birliklar bilan ishslashga o‘tadi (masalan, so‘zni harflab ko‘chirish, bo‘g‘inlab ko‘chirish bilan, keyin so‘zni yaxlit ko‘chirish bilan, so‘ngra u gapni ko‘chirish bilan almashadi). Bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o‘rganiladi va asta-sekin so‘zni to‘g‘ri yozish malakasi hosil bo‘ladi. Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi.

To‘g‘ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o‘quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to‘g‘ri yozuv hodisasini o‘zlashtirish uchun o‘quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez ham tatbiq etiladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o‘xhash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so‘z va so‘z shakllarini ma’lum grammatik yoki grafik guruhlarga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Shunday qilib, orfografiyani o‘rgatishda, grammatikani o‘rgatish kabi, o‘quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish talab etiladi.

O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish gramma tik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki

umumiyl ik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi.

Imlo qoidasi gramma tik umumiyl ik asosida birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalaring ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Imlo qoidalari ni gramma tik, fonetik, so'z yasalishiga oid materiallarni ma'lum darajada bilmasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Gramma tik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. SHuning uchun boshlang'ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo'ladigan gramma tik nazariyaga bog'liq holda o'r ganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalari "Ot", "Sifat", "Son", "Kishilik olmoshlari", "Fe'l" mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi gramma tika bilan orfografiyani bir-biriga bog'liq holda o'r ganishni ta'minlaydi.

Imlo qoidasi bevosita gramma tik nazariya elementlaridan so'ng o'r ganiladi. Masalan, otlarning kelishiklar bilan turlanishi o'r ganilgach, kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi ko'nikma shakllantiriladi. "Sifat" mavzusini o'r ganish -roq qo'shimchasining va qip-qizil, yum-yumaloq kabi sifatlarning yozilishiga, "Fe'l" mavzusini o'r ganish bo'lishsizlik (-ma) va o'tgan zamon (-di) qo'shimchalarining yozilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalari ni o'r gatishga bunday yondashish boshlang'ich sinflarda barcha orfografik materiallarni o'r ganishda tipik hisoblanadi.

Imlo qoidalari ustida ishslash – murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, o‘quvchilarning qoida ifodasini o‘rganib olishlari, qoidani yozuv tajribasiga tatbiq etish uning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Qoida mohiyatini ochish qoida so‘zning qaysi qismini, qaysi so‘z turkumi yoki grammatik shaklni yozishni boshqarishini, bunda qaysi belgilar yetakchi ekanini tushuntirish demakdir. O‘quvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda o‘qituvchi bu yetakchi belgilarni albatta hisobga oladi.

Qoida ifodasi ustida darslik bo‘yicha ishlanadi. Bunda o‘quvchilarning qoida tarkibini anglab yetishlari ahamiyatlidir. Shuning uchun darslikdagi qoida qismlarga bo‘linadi (Aslida o‘quvchilar bu vazifani mashq jarayonidayoq bajarib qo‘yadilar). O‘quvchilar o‘rganilgan qoidaga misol aytish va xilma-xil mashqlarni bajarish yo‘li bilan uni yangi til materialiga, ya’ni yozuv tajribasiga tatbiq etadilar.

Qoida ustida ishslash metodikasi shu qoidaning xarakteriga qarab tanlanadi. Masalan, bo‘lishsizlik qo‘sishimchasi (-ma) ning yozilishini deduktiv yo‘l bilan o‘rgatish mumkin. Jo‘nalish kelishigi qo‘sishimchasi (-ga) ning oxiri -k bilan tugagan otlarga -ka, -q bilan tugagan otlarga -qa shaklida qo‘shilishi haqidagi qoidani indukgiv yo‘l bilan tushuntirish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilar qidadagi asosiy fikrni ajratishga yordam beradigan vazifalarni bajarsalar, uni o‘zlashtirish xiyla qulay bo‘ladi. Chunki bolalar aniq material bilan ishlaydilar va uni tahlil qilish vaqtida qoidaning muhim qismlarini ajratadilar, qoidani ongli o‘zlashtiradilar. Nimanidir, masalan, so‘zlarning talaffuzi va yozilishini, so‘z turkumlarini, so‘z qismlarini bir-biriga taqqoslash o‘quvchilarning aqliy faolligini oshiradi. Bunda yana qoidaning ajratilgan belgisini aniq yozib ko‘rsatish ham ahamiyatli hisoblanadi. Qoidada aks ettirilgan muhim fikrni ajratishga o‘qituvchining savollari yordam beradi. Bu savollar, o‘z navbatida, qoidani shakllantirish rejasi ham hisoblanadi.

Qoida ustida jamoa bo‘lib ishslash bilan birga, darslikdan foydalanib, mustaqil ishslash usulini qo‘llash ham mumkin.

Yangi qoidani o‘zlashtirishda o‘rganilgan bilimlarga suyaniladi. Buning uchun yangi qoida ilgari o‘rganilgan qoidalar bilan bog‘lanadi. Bunda qarshi qo‘yish yoki taqqoslash usulidan foydalaniladi va o‘xhash tomonlari aniqlanadi. Masalan, tushum kelishigi qo‘srimchasing yozilishini o‘zlashtirishda u ilgari o‘rganilgan qaratqich kelishigi qo‘srimchasing yozilishi bilan taqqoslanadi va tushum kelishigi qo‘srimchasi otning fe’l tomonidan boshqarilishini bildirishi aniqlanadi.

Qoidani bilib olish o‘quvchilarda u haqdagi aniq tasavvurning mavjudligiga bog‘liq. Qoida asosida hosil bo‘lgan aniq tasavvur so‘zlarda ifodalanadi. Shuning uchun o‘quvchilardan qoidani quruq yodlab berish talab etilmasligi, balki so‘zni to‘g‘ri yozishdagi xususiyatlar aniq material misolida qayta tushuntirilishi lozim.

Imloga oid mashqlar. Imloviy malaka ongli nutq faoliyatining avtomatlashgan komponentidir. Faoliyat avtomatlashishi uchun uzoq vaqt davomida maqsadga qaratilgan mashqlar bajarib boriladi. Imloga oid mashqlar imloviy ziyraklik ko‘nikmasini shakllantirishga, tegishli o‘rinda qoidani tatbiq qilishga, mashqlarning qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishni belgilash, ularni umumiyligida yagona faoliyat tizimiga kiritishga, o‘quvchilar uchun qoidaning mohiyatini aniqlash va uni shakllantirishga qaratiladi. Qoidani tatbiq qilish davridagina uning mazmuni chuqurroq o‘zlashtiriladi. Metodikada imloga oid mashqlarga: 1) grammatik-orfografik tahlil; 2) ko‘chirib yozuv; 3) diktantlar; 4) leksik-grammatik tahlil; 5) bayonlar kiradi. Grammatik-orfografik va leksik-orfografik tahlilda orfografiyaning grammatika va leksika bilan bog‘lanishi, ko‘chirib yozuv va diktantda o‘quvchilar faoliyatini belgilaydigan omillar, xususan, ko‘chirib yozuvda ko‘ruv va qo‘l harakati uquvi, diktantda eshituv uquvi hisobga olinadi.

Ko‘chirib yozuv ko‘rib idrok qilingan so‘z, gap va matnni yozma shaklda ifodalashdir. Boshlang‘ich sinflarda husnixat va imlo qoidalariga rioya qilib, tuzatishlarga yo‘l qo‘ymay va tartibli, harflarni tushirib qoldirmay, o‘rnini almashtirmay, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llab ko‘chirib yozuv ko‘nikmasi shakllantirilishi kerak. O‘quvchilarda bu ko‘nikmani hosil qilish maqsadida

o‘qituvchi alifbe davridan boshlab ularga ko‘chirib yozuvni izchilllik bilan o‘rgatib boradi.

O‘quvchilarda ko‘chirib yozuv ko‘nikmasini shakllantirishga oid asosiy qoidalarga quyidagilar kiradi:

1. Ko‘chirib yozishdan oldin ko‘chirib yozadiganingni yaxlit o‘qib chiq.
2. Har bir gapdagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrat va ichda bo‘g‘inlab ayt.
3. Ko‘chirib yozganiningni asliga solishtir va xatolaringni to‘g‘rila.

Ko‘chirib yozuv uchun so‘z, alohida gap va kichik matnlardan foydalaniladi.

O‘qituvchining qo‘ygan maqsadiga bog‘liq holda ko‘chirib yozishdan oldin unga tayyorgarlik ko‘riladi; bunda imlosi qiyin so‘zlarni izohlab o‘qish, so‘zning nima uchun shunday yozilishini asoslash, o‘rganilgan qoida asosida yoziladigan so‘zlarni aniqlash kabi mashqlardan foydalaniladi. Bu ko‘nikma qay darajada shakllanganligini aniqlash maqsadida kontrol (tekshiruv) ko‘chirib yozuv o‘tkaziladi.

Ko‘chirib yozuv mashqlari grammatik, leksik yoki so‘z yasalishiga oid vazifalarni bajarish bilan birga olib boriladi. Bu imlo qoidasini tatbiq etishni yaxshi bilib olish imkonini beradi. Chunki vazifaning xarakteri imloviy malakani shakllantirishga nazariy asos bo‘ladigan grammatik, fonetik bilimlarni faollashtirishni talab etadi. Bulardan tashqari, kompleks mashqlar orfografiya bilan birgalikda nutq o‘sirish vazifalarini ham bajarish imkonini beradi. Kompleks mashqlarga misol qilib quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Ko‘chirish. O‘zakdosh so‘zlarni aniqlab, o‘zakni ajratish.
2. Tushirib qoldirilgan qo‘shimchalarni qo‘yib ko‘chirish, qanday qo‘shimcha ekanini aytish; yozilishini tushuntirish.

3. Matn mazmuniga mos so‘zni qavs ichida berilgan so‘zlardan topib qo‘yib ko‘chirish. Shu so‘z qaysi so‘z turkumiga oid ekanini, uning yozilishini tushuntirish.

4. Aralash berilgan so‘zlardan gap tuzish va yozish.

5. Tartibsiz berilgan gaplardan bog‘lanishli matn tuzish.

6. Tanlab ko‘chirish (Berilgan gaplardan yoki matndan muayyan bir so‘z turkumini; ot va fe’ldan yoki ot va otdan, sifat va otdan tuzilgan so‘z birikmalarini ko‘chirish).

Boshlang`ich sinfda savodxonlik asosan diktant, insho, bayon orqali amalga oshiriladi. Inshoning mavzusi insho predmeti bo’lib, uning mazmunini tashkil etadi. Mavzuga qarab inshoda aks ettiriladigan materiallar, dalillar, hodisalar tanlanadi. Inshoning to’g’ri va to’liq bo’lishi o’qituvchi mavzuni qanday shakllantirishi, o’quvchilar uni qanday tushunishlariga bog’liq.

Insho ustida ishlashda mavzu tanlash, uni rejalashtirishda esa og’zaki va yozma insho mavzusini belgilab olish muhim rolb o’ynaydi.

O’quvchilar mavzuni yoritishga 1-sinfdan boshlab o’rganadilar. Ular mavzuga oid gap tuzadilar. Masalan, bahor havosi haqida, ona qishlog’i (shahri) haqida, qo’rqoq quyon, ayyor tulki haqida gap tuzadilar. Keyin savollar asosida bir mavzuga oid bir necha gap tuzib, uni yozadilar. Insho uchun iloji boricha tor – aniq chegaralash mumkin bo’lgan mavzuni tavsiya qilish foydali. «Kuz» mavzusi o’quvchilar uchun juda keng mavzu bo’lib, bunda o’quvchi umuman kuz haqida, kuzda qilinadigan ishlar haqida yozishi mumkin, u yozadi – gaplarining aniq chegarasini bilmaydi. O’quvchilarga kuzga oid «*Paxta terimiga yordam*», «*Kuz kunlarining birida*», «*Bog’da olma terdik*», «*Pomidor terishga yordamlashdik*», «*Kech kuzda bog’ manzarasi*» kabi mavzularni tavsiya qilish mumkin.

Og’zaki va yozma insho ustida ishlashda mavzu berib, uni yoritishni talab qilishdan tashqari, avval material to’plash va shu yig’ilgan materiallar asosida

mavzuni shakllantirishni tavsiya qilish ham mumkin. Masalan, kech kuzda tabiatni kuzatish va material yig'ish tavsiya qilinadi, kuzatishlar «Kech kuzda» mavzusida insho yozish bilan yakunlanadi. Bunda o'quvchilar mavzuni to'liq yoritadilar.

Insho rejasini tuzish. Reja har qanday og'zaki yoki yozma hikoya qilishning zaruriy pog'onasi, uning «loyihasi»dir. Qishi o'z nutqi haqida o'ylab, asosiy gaplarini belgilab oladi. Insho uchun reja tuzish shuning uchun ham zarur. 1-sinfda reja rolini o'qituvchi savollari, ya'ni so'roq gaplar tarzidagi reja bajaradi; 2-sinfda reja o'qituvchi rahbarligida jamoaviy tarzda tuziladi; 3-4-sinflarda esa mustaqil tuziladi. Boshlang'ich sinflarda 3 - 5 talik oddiy reja tavsiya qilinadi.

Bolalar avval o'qigan hikoyalariga reja tuzadilar va uni reja asosida qayta hikoya qiladilar, keyin bayon rejasini tuzadilar, so'ng bir mavzuga oid bir necha rasm (rasmlar seriyasi) asosidagi insho rejasini, ya'ni rasmlli reja tuzadilar, inshoga sarlavha topadilar. Shundan so'ng tasvirlangan voqeа-harakatlar aniq ajratilgan, reja tuzishga qulay bo'lган rasm yoki kuzatishlar asosida yoziladigan insho rejasini tuzishga o'tiladi.

Reja tuzishga o'rgatishda oldin nima haqida to'xtalish, keyin uni qanday davom ettirish, undan so'ng nima haqda aytish, nihoyat, hikoyani qanday tugatish kerakligini o'quvchilarga tushuntirish foydali usul hisoblanadi. Reja avval so'roq gap tarzida, keyin darak gap, oxiri nominativ gap tarzida tuziladi.

Reja ko'pincha insho yozishdan oldin unga tayyorlanish jarayonida (rasm asosida yoziladigan insho rejasi kabi) tuziladi. Ba'zan rejani ekskursiya, kuzatishdan oldin, unga tayyorgarlik jarayonida tuzish maqsadga muvofiq. Ekskursiya, kuzatish, ijtimoiy foydali mehnat rejasi shu ishlar bajarilishidan oldin yoki ular yuzasidan material to'plash, insho uchun material tanlash va uni tartibga solish jarayonida tuziladi. Bunday reja insho yozishdan oldin ko'rib chiqilib, unga ayrim aniqliklar kiritiladi.

Inshoni yozishga tayyorlash. Og'zaki yoki yozma inshoning turi va vazifasiga qarab unga tayyorgarlik ko'rildi. Inshoga tayyorgarlikni o'qituvchi boshqaradi,

bunga o'quvchilarni ishtirok ettiradi, ularning o'ta faolligi va mustaqilligiga erishadi. Tayyorlik deganda, birinchidan, o'quvchilarda nimanidir tasvirlashga, hikoya qilishga talab uyg'otadigan vaziyat yaratish; ikkinchidan, insho uchun yetarli bo'lган zarur material yig'ish; uchinchidan, mavzuga oid, uni yoritishga mos bo'lган til vositalarini tanlash tushuniladi. Inshoga tayyorlik inshoni yozishdan bir necha kun ilgari boshlanadi, darsdan tashqari vaqtarda va boshqa darslar jarayonida ham olib boriladi. Og'zaki yoki yozma insho ustida ishslash quyidagi uch bosqichga bo'linadi:

- 1) material yig'ish, ya'ni kuzatish, ekskursiya, mehnat jarayoni, rasmni ko'rib chiqish, kinofilm, spektaklni ko'rish, badiiy va boshqa adabiyotlarni o'qish;
- 2) mavzuga va uni yoritishga mos material tanlash, uni tartibga solish, joylashtirish, ya'ni suhbat, muhokama qilish, zarur materialni ajratish, reja tuzish, lug'at ustida ishslash, imlo va leksik tomondan tayyorlash va hokazo;

Birinchi va ikkinchi bosqichdagi ishlar, odatda, darsdan tashqari vaqtida bajariladi. Masalan, ekskursiya asosidagi insho uchun material yig'ish uni yozishdan ancha ilgari boshlanadi; tabiat hodisalarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko'proq davom etadi; rasmlar esa insho yozishdan oldin ko'rildi. Shunday qilib, insho yozish yoki og'zaki hikoya qilish darsi ilgari bajarilgan ishlarning yakunidir. Insho darsining umumlashtiruvchilik roli bog'lanishli nutq sohasidagi ko'nikmalarни egallash me'yoriga qarab ortib boradi. Insho darsining qurilishi tayyorlov bosqichining xarakteriga bog'liq. Tayyorlov bosqichida qancha ko'p ishlansa, insho darsida matn ustida shuncha chuqur ishslash imkoniyati yaratiladi. Insho yozishdan oldin yoki og'zaki hikoyalashda yig'ilgan materiallarni o'quvchilar yodiga tushirish, ularda qiziqish uyg'otish, yozishga yoki hikoya qilishga xohish uyg'otish zarur. Insho yozish darsida quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi:

1. Mavzuni, inshoning vazifasini e'lon qilish (yoki yodga tushirish), uni o'quvchilar bilan muhokama qilish.

2. Kuzatish davrida to'plangan materialni tartibga solish yoki material yig'ish (masalan, rasmga qarab insho yozish uchun rasmni ko'rish) maqsadida suhbat o'tkazish.

Keyingi ona tili darsining ikkinchi qismidan 15-25 minut vaqt ajratib, tekshirilgan insholar yuzasidan yakuniy mashg'ulot o'tkaziladi (insho tahlil qilinib, xatolar ustida ishlanadi). O'qituvchi har bir insho turi uchun o'quv vazifasini belgilab oladi. Masalan, rasmlar seriyasi asosida birinchi marta yozdiriladigan insho uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

1. O'quvchilarni inshoning yangi turi bo'lган rasmlar seriyasi asosidagi insho bilan tanishtirish.

2. Rasmlı reja asosida matn rejasini tuzish.

O'quvchilarning mustaqillik darajasi o'sib borgani sayin, inshoga talab ham orta boradi. Tabiiyki, bunda yuqorida bayon etilgan asosiy talablarga rioya qilinadi.

O'quvchilar inshosini baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

1. Insho mavzusining yoritilishi (Mazmun mavzuga mosmi, ya'ni yetarli yoritilganmi, haqiqatga mos keladimi?).

2. Reja, kompozitsiya, izchilllik (reja to'g'ri tuzilganmi, materialni bayon qilish tartibi rejaga mos keladimi, mazmunda takror yo'qmi, zarur o'rinalar tushib qolmaganmi, izchilllik buzilmaganmi, asosiy fikr aniqmi, xulosa chiqarilganmi?).

3. Janri, uslubi (hikoya tarzidagi matnda tasviriy va muhokama elementlari bormi, uslubda xatoga yo'l qo'yilmaganmi, insho mavzusi va vaziyatni yoritish vazifasini janr va uslub oqlay oladimi, badiiylik elementlari bormi?).

4. Insho hajmi (so'z, gap soni; lakonizm yoki ko'p so'zlilik).

O'quvchilar inshosiga qo'yilgan bunday talablar uni baholashda real yondashishga imkon beradi

## 1.2. YOZMA NUTQQA QO'YILADIGAN TALABLAR

Ma'lumki, bayon o'qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozma qayta hikoyalashdir. O'qish darslarida matn ustida ishlash, o'qilgan matn yuzasidan savollarga javob berish, reja tuzish va reja asosida og'zaki qayta hikoyalash bolalarni bayon yozishga tayyorlaydi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozish sur'ati sekin, shunga ko'ra bayon uchun kichik hajmdagi, kompozitsiyasi sodda, til tomondan ham mos matn tanlanadi. Bayon matni asta-sekin murakkablashtira boriladi: avval hikoya tarzidagi bir lavhani ifodalovchi matn tanlansa, unga yana lavhalar, tasvir elementlari kiritila boriladi, qatnashuvchilar soni orttiriladi, muhokama elementlari ham qo'shiladi; keyinroq shaxsini o'zgartirib bayon yozishga o'tiladi. Shunday qilib, bayon asta-sekin ijodiy tus ola boradi. Boshlang'ich sinflar ona tili dasturiga ko'ra, 2-sinfda katta bo'lмаган (30-40 со'зли) matn yuzasidan o'qituvchi yordamida so'roqlar asosida bayon yozish, 3-sinfda 40 - 60 со'здан iborat matnning mazmunini jamoa bo'lib tuzilgan 3-5 ta reja asosida bayon yozish, 4 - sinfda esa mustaqil tuzilgan reja asosida (70-90 со'зли) bayon yozish ko'zda tutiladi. Mashq sifatida bayonning ahamiyati katta: bayon bolalarda adabiy nutqni to'g'ri shakllantirishga yordam beradi, nutq madaniyatini yaxshilaydi, badiiy uslubni singdiradi, tilga sezgirlikni oshiradi. Bayon uchun kishilarning fidokorona mehnati, hayotini, ona tabiat tasvirini, fan, texnika, madaniyat borasidagi yutuqlarni aks ettiradigan yuksak g'oyali matn tanlanishi, bayon mavzusi o'quvchilarning bilish tajribasini kengaytirishi, ularning dunyoqarashini shakllantirishi zarur. To'liq yoki matnga yaqin bayon yozish savod o'rgatish davridanoq boshlanadi va barcha sinflarda o'tkaziladi. Bolalarni o'z fikrini mustaqil yozishga (o'qilgan matnni hikoya qilishga) o'rgatishni, iloji boricha, erta boshlash ma'qul. O'quvchilar yozgan bayon muhokama qilinayotganda, ular yozgan matnni bayon matniga qiyoslash maqsadga muvofiq bo'lib, bu ish mazmunda va bolalar bayoni tilida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

**“Insho”** asli arabcha so’z bo’lib, ma’nosi “*yaratish*”, “*bino qilish*”, “*boshlash*” demakdir. Bu so’zning ma’nosi hozirda ancha torayib, asosan, o’quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma’nosida qo’llanadi. Insho – ijodiy ish bo’lib, u o’quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o’ylash, mantiqiy bog’lanishni belgilash, so’z, so’z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o’zaro bog’lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o’quvchidan aqliy kuchini to’la ishga solish bilan birga, o’z ma’naviy faoliyatini boshqarish ko’nikmasini ham talab etadi. Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo’shiladi. O’quvchi inshoni mustaqil, ijodiy harakterda bo’lgani uchun, «o’ziniki»ni yozgani uchun ham sevadi. Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi – inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar yangi, o’quvchilar nutqini o’stirish, aqliy, ijodiy o’sishiga mo’ljallangan dasturga o’tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada o’sdi. Og’zaki va yozma inshoga o’rgatish jarayonida o’quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o’z inshosini aniq fikrga bo’ysundirish, material to’plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalananish, yozgan inshosini takomillashtirish ko’nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, «texnik» vazifalar ham amalga oshiriladi, ya’ni matnni yozishda imlo qoidalari va husnixatga e’tibor berish, matnni xatboshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi. Og’zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi. Insho material manbaiga ko’ra quyidagi uchga bo’linadi:

- 1) o’quvchining o’zi ko’rgan-bilganlari, eshitganlari haqidagi, ya’ni mehnat, kuzatishlar, ekskursiyalar, o’yinlar, o’z tajribasi va boshqa jonli materiallar asosidagi insho;
- 2) kitob materiali, rasmlar, film, spektakl, o’qituvchi hikoyasi va boshqa manbalar asosidagi insho;

Mustaqillik darajasiga, tayyorgarlik ko'rish metodiga ko'ra insho ikki turli bo'ladi:

- 1) sinf o'quvchilari uchun umumiylar bir mavzu asosida jamoaviy tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan insho;
- 2) alohida mavzu asosida individual tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan individual insho.

Janriga ko'ra hikoya, tasvir, muhokama tarzidagi insholarga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda tasvir va muhokama elementlari mavjud bo'lgan hikoya tarzidagi inshodan ko'proq foydalaniladi. Inshoni tasnif qilish ta'limiy vazifalarni chuqur anglash va metodik vositalarni tanlashga, shuningdek, ish turlarini zaruriy yo'nalishda, baravar taqsimlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir. Rasm asosidagi insho maktablarda tez-tez o'tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasm bolalar sezgisiga ta'sir etadi, hayotning bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o'quvchilarga tanish bo'lgan hodisalarini chuqur anglashga ham yordam beradi. Rasm asosidagi inshoning uch asosiy turi bor: 1) rasmlar seriyasi yoki rasmlri reja asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;

- 2) syujetli, o'quvchilarni o'ylashga, faraz qilishga undaydigan bir rasm asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;

O'quvchilar avval rasmlar seriyasi asosida, so'ng bir rasm asosida, undan so'ng tasviriy insho yozish (rasmni tasvirlash)ga o'rgatiladi. Dasturga ko'ra, 1-sinf o'quvchilari o'yinlari, mehnatlari, voqeа-hodisalar haqidagi taassurotlari asosida o'qituvchi rahbarligida hikoya tuzishlari va uni ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozishlari, 2 - sinfda rasmlar seriyasi asosida kichik hikoya tuzish va uni jamoa tarzda tuzilgan reja asosida yozish, tabiatni kuzatish va mehnat jarayoni haqida, bolalarning o'yinlari, ishlari, sayillari haqida, avval o'qituvchi rahbarligida, keyin

mustaqil ravishda kichik hikoya tuzish va uni yozish, shaxsiy ishlari haqida xat yoza olishlari, 3 - sinfda rasmlar (bir mavzuga oid bir necha rasm, syujetli bir rasm, rasmni tasvirlash) asosida hayotiy tajribalari, kuzatishlari, ekskursiyalardan oлган taassurotlari asosida rejani, avval jamoaviy ravishda, keyin mustaqil tuzib hikoya qilish va uni yozishlari talab etiladi. Boshlang'ich sinflarda insho ta'limiylar xarakterda bo'ladi, 3-sinf dagina tekshiruv insho o'tkazish mumkin. Rag'batlantirish maqsadida ta'limiylar insholar ham baholanadi, lekin salbiy baho qo'yish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar tarbiyasida inshoning ahamiyati. Inshoning tarbiyaviy ahamiyati tanlanadigan mavzuga, shuningdek, insho ustida o'quvchilar qanchalik mustaqil ishlashi va qiziqishiga, insho g'oyasiga ham bog'liq. Insho bolalarning voqeа-hodisalarini chuqur his etishiga yordam beradi, izchil fikrlashga o'rgatadi, tilga va adabiy ijodga qiziqishlarini o'stiradi. Bolalar eng qiziqarli va o'zlariga yaqin voqeа-hodisalar haqida hikoya qiladilar va yozadilar, ularning inshosi mustaqil ishlash malakasini o'stiradi, ommaviy faollilikni oshiradi.

Tanlangan mavzuning g'oyaviy yo'nalishini ochish tarbiyaviy vazifani hal qilishga imkon beradi. Bu jihatdan mehnat, mehnat qahramonlari haqidagi, bolalarning hayoti, məktəb, tug'ilib o'sgan qishlog'i yoki shahri haqidagi, urush qahramonlari haqidagi mavzular ayniqsa qulay. Bu mavzulardagi insholar mehnat kishilariga, qahramonlarga chuqur hurmatni tarbiyalaydi. Insho jamiyat hayotini tushunishga o'rgatadi. Tabiatga, kishilarga, ularning yaxshilikka intilishlari va harakatlariga, mehnatga va mehnat mahsuliga muhabbatni tarbiyalaydi, kishilar xatti-harakatidagi chiroyli jihatlarni egallashga, hozirgi zamon axloqiy talablarini anglashda o'quvchilarga yordam beradi. Inshoning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

**1. Osandan qiyinda tamoyiliga rioya qilgan holda og'zaki va yozma inshoni muntazam o'tkazib borish bilan o'quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash.**  
Mustaqil insho o'quvchilar faolligini o'stiradi.

**2. Inshoni hayot bilan bog'lash.** Bunda kuzatishlar asosidagi insho, kundalik yuritish, qilingan ishlar yuzasidan «hisobot» tarzidagi insho, xat, maqola,

o'qilgan kitob haqida taqriz kabilarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Ba'zi maktablarda bolalar inshosi va hatto bolalar she'rlari to'plami tuziladi, yaxshi yozilgan hikoya uchun tanlov e'lon qilinadi.

Boshlang`ich sinflarda savodxonlikni rivojlantirish, asosan ularda imloviy malakani shakllantirish orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi.

Aslida savodlilik, 1) aholi madaniy saviyasi kursatkichlaridan biri; 2) odamning adabiy til normalariga muvofiq keladigan og`zaki va yozma nutq malakalariga egaligi; 3) oddiy matnlarni o`qiy olish yoki ularni o`qish va yoza olish ko`nikmasiga egalik; 4) muayyan soha bo`yicha bilimga egalik (siyosiy savodxonlik, texnik savodxonlik, tibbiy savodxonlik). "Savodxonlik" tushunchasining mazmun mohiyati jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida uning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, madaniy hamda ruhiy saviyasiga bog`liq ravishda o`zgarib turadi. Siyosiy qarashlarning noxolisligi va milliy kamsitish ruhidagi yondashuvlar biror mamlakat yoki millat savodxonlik darajasini belgilashda salbiy ta`sir ko`rsatadi. Chunonchi, chor Rossiyasida chiqadigan "Vestnik vospitaniya" jurnalida 1900 yilda Turkiston o`lkasi nihoyatda qoloq hamda mutlaqo savodsiz elatlardan iborat va ularni savodli qilish uchun kamida 4600 yil kerak degan g`irt soxta xulosani yozgan. Sho`ro davridagi deyarli barcha ilmiy manbalarda esa, 1917 yil Oktabr to`ntarishiga qadar O`zbekiston aholisining 1,5—2% gina savodli degan yolg`ondan iborat ma`lumotlar ko`rsatilardi. Holbuki, 1897 yilgi aholini ro`yxatga olish ma`lumotlariga ko`ra, Rossiya markazi aholisining savodxonlik darajasi 21% ga, Turkiston o`lkasi xalqining savodxonlik darajasi esa 19,5% ga tengligi qayd etilgan. So`nggi davrda olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqdangan, ammo hali ham unchalik to`la bo`lmagan ma`lumotlarga kura, 1913 yili Turkiston o`lkasida 7665 maktab va madrasa faoliyat ko`rsatgan. Bu raqam o`lkamiz aholisining savodxonlik darajasi rasmiy ma`lumotlarda qayd etilganiga qaraganda ancha baland bo`lganligini ko`rsatadi.

Sho`ro hukumati o`z siyosiy manfaatlaridan kelib chiqib, aholining savodxonlik darajasini yuksaltirish borasida bir qator ishlarni amalga oshirdi. 1919 yil 26 dekabrdagi RSFSR XKS tomonidan chiqarilgan Dekretda 8 yoshdan 50 yoshgacha bo`lgan o`qishni bilmaydigan har bir odam o`z xohishi bilan ona tili yoki rus tilida savod chiqarishi lozimligi belgilab qo`yildi. Bu tadbir aholining savodxonlik darajasini yuksaltirishga ijobjiy ta`sir ko`rsatdi. Ayni vaqtda, sezdirmay amalga oshirila boshlagan ruslashtirish siyosatining ko`rinishi ham bo`ldi. 1920 yilda mamlakat Maorif xalq komissarligi qoshida Savodsizlikni tugatish komissiyasi tuzildi. Mamlakatdagi barcha viloyat, shahar va tumanlarda bu komissiya sho`balarini vujudga keltirilib, savod chikarish maktablari hamda kurslar tashkil etish bilan shug`ullandi.

O`zbekiston mustaqillikka erishganidan so`ng aholining savodxonlik darajasini yuksaltirishga alohida e`tibor qaratildi. Chunki jamiyat a`zolarining savodxonlik darajasi mamlakat taraqqiyotini ta`minlaydigan asosiy omillardan biri ekanligi anglab yetildi. Shuning uchun ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul kilinishi (1997) munosabati bilan majburiy ta`lim muddati bir yilga uzaytirildi. Eng muhim, ta`limning mazmuni, uni tashkil etish yo`li, ta`lim mohiyatini belgilash borasida yangi konsepsiyaiga amal qilina boshlandi. Milliy istiqyaol g`oyasini singdirish umum davlat ahamiyatiga ega tadbir sifatida qaraladigan bo`lishi bilan S.ning ahamiyati ham sezilarli darajada ortdi. Mamlakatimizda ta`lim tizimi shunday uyushtirilganki, biror sog`lom kishi o`qishdan chetda qolmaydi.

"Savodxonlik" tushunchasi turli joylarda turlicha belgilanadi. Ayrim mamlakatlarda oddiy matnlarni o`qishni bilgan odam savodli hisoblangan bo`lsa, ba`zi yurtlarda o`qish bilan birga yozishni ham bilgan odam savodli hisoblangan. Shuning uchun ham "Savodxonlik" tushunchasi mohiyatini tayin etish masalasi demografik statistika va aholi ro`yxati dasturlariga doir xalqaro yig`ilishlarda bir necha bor ko`rib chiqilgan. YUNESKO ning 1958 yili Parijda bo`lib o`tgan 10 sessiyasida barcha mamlakatlarda savodxonlik tushunchasini bir xillashtirish

maqsadida yozuvni tushunib o`qiy oladigan va o`zining kundalik hayotini yozma ravishda bayon qila biladigan kishilarni savodli hisoblashga kelishilgan.

Ilm-fan tinimsiz rivojlanayotgan, axborot texnologiyasi takomillashib, inson tafakkurining imkoniyati yuksalib borayotgan ayni kunlarda ham savodxonlik darajasi dunyo miqyosida u qadar yuqori emas. YUNESKOning tegishli tizimlari bergen ma`lumotlarga ko`ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez ko`payishi, bolalarining ta`lim tizimiga to`liq jalb etilmasligi sababli savodxonlikning pasayib borayotganligi kuzatilmoque. Hatto yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarda ham savodsiz kishilar miqdori aholi qatlamining kattagina foizini tashkil etadi. Shuning uchun ham 1966 yili YUNESKO ning Bosh anjumanida 8 sentabr Xalqaro savod tarqatish kuni ekanligi belgilab qo`yildi.

## II BOB. NUTQIY XATOLAR VA ULARNI BARTARAF QILISH

### YO'LLARI XATOLAR USTIDA ISHLASHGA KREATIV YONDASHISH

#### 2.1. BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINING SAVODXONLIGINI OSHIRISH USULLARI

O'quvchilarning og'zaki yozma nutqini o'stirishda, savodxonligini oshirishda diktantni ahamiyati katta. Diktant eshitib idrok qilingan so'z, gap, matnni yozishdir. Diktant yozishga tayyorgarlik ko'rish o'quvchilarda ma'lum psixologik holatni yuzaga keltiradi. Ular o'zlarida bu ishga kirishish ruhini paydo qilib, daftar sahifasini ochadilar. Doskadan sana va matn sarlavhasini ko'chirib yozadilar. So'ngra diqqat-e'tibor bilan matnni tinglaydilar. O'qituvchi o'rtacha balandlikdagi ovoz bilan matndagi so'zlarni dona-dona qilib o'qiydi. Bolalar bilan matnni tahlil qiladi. So'ng o'quvchilarga:

— Endi ko'zlariningizni yuming va ichingizda: «Men diktantni to'g'ri va chiroyli yozaman, yaxshi baho olaman» deb ayting, deya ruhlantiradi va diktant yozishga tayyorlaydi.

O'qituvchi avval gapni to'liq o'qiydi, so'ng so'zma-so'z aytib, o'quvchilarning ulgurishlarini kuzatgan holda diktant yozdirishni davom ettiradi.

Diktant uchun tanlangan matnlarda ko'p bo'g'inli yoki talaffuzi qiyin so'zlar bo'lsa, doskaga yozib qo'yilsa ham bo'ladi.

Bolalar har safar diktant yozishga kirishishda ko'tarinki ruhda bo'lishlarini ta'minlash uchun ulardagi ruhiy holatni hamisha hisobga olib ish yuritish lozim.

Diktantni yozib bo'lgandan so'ng, yozilgan matnni mustaqil o'qib chiqib, xatolarini tuzatishga ruxsat berish, ishni eng oldin topshirgan o'quvchilarni maqtab qo'yish, o'rnak qilib ko'rsatish va boshqalarni ham shunga undash, bolalarning yozma ish yozishga qiziqishlarini orttiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'quvchi diktant yozishda so'zning harfiy ifodasini ko'rmay, eshitish orqali tovushlar majmuasini tasavvur etadi, tovushlarni harflar bilan almashlab yozadi. Bunda ruhiy va jismoniy jarayonning birgalikda kelishi so'zlar shaklining bola xotirasida mustahkamlanib borishiga imkon beradi. Shuning uchun ham diktant imlo o'rgatishda, o'z tabiatiga ko'ra, to'la ta'limiylar yozma ish hisoblanadi.

Diktantlar maqsadiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

Talimiy diktant. Diktantning bu turi o'rgatilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida yozuv darsining ma'lum bir qismida mashq sifatida o'tkazilib, unga alohida soat ajratilmaydi.

Boshlang'ich sinflarda ta'limiylar diktantning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

1. Lug'at diktanti.
2. Saylanma diktant.
3. Ko'rsatuv diktanti.
4. Yoddan yozuv diktanti.
5. Ta'kidiy diktant.
6. Izohli diktant.
7. Ijodiy diktant.
8. Erkin diktant.

Tekshiruv diktanti. Diktantning bu turida o'quvchilar so'zlarni qanchalik o'zlashtirganlarini sinash, tekshirish maqsadida o'tkaziladi.

Lug'at diktant. Lug'at diktanti o'rganilgan imlo qoidalarini mustahkamlash, o'quvchilar so'z boyligini oshirish maqsadida o'tkaziladi. Bundan tashqari,

o‘rganilgan imlo qoidalarining o‘quvchilar tomonidan qanchalik o‘zlashtirilganini sinash, hisobga olish maqsadida ham o‘tkazilishi mumkin. Lug‘at diktant uchun o‘rganilgan imlo qoidasi asosida yoziladigan so‘zlar, so‘z birikmalari yoki turli narsalar va ularning rasmlaridan ham foydalanish mumkin.

Agar tayyor so‘z va so‘z birikmalari yozdiriladigan bo‘lsa, dastlab ularning ma'nosi, talaffuzi va yozilishi suhbat orqali izohlab tushuntiriladi. So‘ng, har bir so‘z alohida-alohida aytib yozdiriladi.

Diktantda turli narsalar yoki ularning rasmlaridan ham foydalaniladi. Bunda ish quyidagicha tashkil etiladi:

— tanlangan narsalarning rasmlari yoki o‘zi tartib bilan o‘quvchilarga ko‘rsatiladi. o‘quvchilar rasmda ko‘rsatilgan narsalarning nomini yozib, orasiga vergul qo‘yadilar. Ish shu tarzda davom etadi. O‘quvchilar yozganlarini o‘qib, xatolarini imlo lug‘atiga qarab yoki o‘zlari mustaqil to‘g‘rilaydilar, keyin esa o‘qituvchi tomonidan tekshirib, baholanadi. Lug‘at diktanti 2-sinfda 8 so‘zdan, 3-sinfda 10—12 so‘zdan, 4-sinfda 12—15 so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin.

Saylanma diktant. Saylanma diktant o‘rganilgan grammatik va imlo qoidalarini mustahkamlashga, ularni amalda qo‘llashda yordam berish bilan birga, o‘quvchilar mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlashga ham imkon beradi.

Diktantning bu turida o‘quvchi matnning yoki gaplarning hammasini yozmay, o‘rganilgan qoidalar asosida yoziladigan so‘zlar yoki so‘z birikmalarinigina saylab yozadi, shuning uchun ham u saylanma diktant deyiladi.

Saylanma diktant quyidagicha o‘tkaziladi: o‘qituvchi «Diktantlar to‘plami»dan o‘rganilgan qoidaga mos so‘zlar, gaplar ko‘proq ishtirok etgan matnni tanlaydi. Matn darsdan oldin doskaga yozib qo‘yiladi (ko‘chma yozuv doskasidan foydalanish ham mumkin). O‘qituvchi matnni bir marta o‘qib bergach, matn tahlil qilinib, o‘rganilgan qoida asosida yoziladigan so‘zlar yoki so‘z birikmalari aniqlanadi va qoida takrorlanib, mustahkamlanadi. Keyin matn bir o‘quvchiga

o‘qilib, bolalar diqqati doskadagi yozuvga jalb qilinadi. Shundan so‘ng doska parda bilan berkitib qo‘yiladi va o‘qituvchi bolalarga ta’kidlaydi:

— Men doskaga yozilgan gaplarni tartib bilan o‘qiymen. Sizlar men o‘qigan gaplarni toliq yozmay, takrorlangan qoidaga muvofiq bolgan so‘z va so‘z birikmalarinigina saylab yozasizlar. Agar gapda shu qoida asosida yoziladigan so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lmasa, bu gapni butunlay yozmaysizlar.

O‘quvchilar saylanma diktantni yozib bolgach, doskadagi matn o‘qituvchi rahbarligida o‘qitiladi va tekshiriladi: o‘qituvchi saylab yozish lozim bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasining tagiga chizadi, o‘quvchilar yozganlarini doskadagiga solishtirib tekshirib, xatolarini tuzatadilar.

Masalan, 3-sinfda «Talaffuzda tushib qoladigan undoshlar» mavzusini mustahkamlash bilan shu mavzu yuzasidan o‘quvchilar bilimini sinash, qanday o‘zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida quyida berilgan «Samarqand» matnidan foydalaniб, saylanma diktant o‘tkazish mumkin.

*Samarqand — katta shahar. U yerda baland-baland binolar bor. Ular pishiq g‘ishtdan ishlangan.*

*Yaqinda zamонавиy mehmonxona binosi qad ko‘tardi. Shaharning ko‘rkam jamolini ko‘rgan kishi xursand bo‘ladi. Samarqand tarixiy yodgorliklarga boy shahardir.*

O‘qituvchi matnni bir marta ifodali o‘qib beradi. Suhbat yordamida o‘quvchilar Samarqand, baland, xursand so‘zlari oxiridagi «d» undoshi, g‘ishtdan so‘zidagi «t» undoshi talaffuzda tushib qolayotganini, ammo yozuvda saqlanishini aniqlaydilar. O‘qituvchi sana va sarlavhani yozadi va:

— Men matndagi gaplarni bitta-bitta o‘qiymen. Sizlar gap tarkibidagi talaffuzda tushib qoladigan «d» yoki «t» undoshli so‘zlarni yozasizlar, — deb ta’kidlaydi.

O‘qituvchi birinchi gapni o‘qiganda, o‘quvchilar Samarqand so‘zini yozib, vergul qo‘yadilar. O‘qituvchi ikkinchi gapni o‘qiganda, bolalar baland-baland so‘zini yozib, vergul qo‘yadilar. Shu tarzda matndagi gaplarning barchasi o‘qiladi.

Saylanma diktant yozib bo‘lingach, doskadagi matn qayta o‘qiladi va ish o‘qituvchi rahbarligida tekshiriladi. O‘qituvchi matndagi Samarqand, baland-baland, g‘ishtdan, xursand so‘zlarining tagiga chizadi, bolalar o‘z ishlarini doskadagiga solishtirib, xatolarini to‘g‘rilaydilar.

Saylanma diktant yozish uchun o‘quvchi grammatik va imlo qoidalarini bilishi kerak. Saylanma diktant o‘quvchilarni har bir gapga, so‘z birikmasiga, har bir so‘zga diqqat bilan qarashga odatlantiradi, kerakli so‘zning grammatik shaklini amaliy ravishda qo‘llashga, ziyraklikka o‘rgatadi.

Ko‘rsatuv diktanti. Ko‘rsatuv diktanti boshlang‘ich sinflarning hammasida o‘tkaziladi. Buning uchun o‘tilgan mavzuga doir matn «Diktantlar to‘plami»dan tanlanadi va darsdan oldin husnixat qoidalariga rioya qilgan holda doskaga yozib qo‘yiladi. Matn bir marta shoshmasdan, ifodali qilib o‘qib beriladi. Suhbat (savol-javob) yordamida tushuntiriladi va o‘rganilgan qoidalar eslatilib, matn mazmuni mustahkamlanadi. Shundan so‘ng matn vaqtincha berkitib qo‘yiladi va aytib yozdiriladi. Matnni aytib yozdirib bo‘lgach, doskadagi matn ochiladi. O‘quvchilar yozganlarini doskadagi matnga taqqoslab, yo‘l qo‘ygan xatolarini to‘g‘rilaydilar.

Masalan, 2-sinfda nutq va gap haqida tushuncha hosil qilinganidan keyin quyidagi matn asosida ko‘rsatish diktanti o‘tkazish mumkin.

Tong otdi. Borliq uyg‘ondi. Qushlar sayray boshladi. Quyosh nurini sochdi. Ko‘chalarda harakat boshlandi.

Doskadagi matn ifodali qilib o‘qilgach, gapning oxirida ovozning pasayishi, yozuvda nuqta qo‘yilishi, gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan yozilishi suhbat yordamida tushuntiriladi. So‘ng doskani parda bilan berkitib, matn aytib yozdiriladi.

O‘qituvchi birinchi gapni (Tong otdi) o‘qiydi, ammo undan so‘ng nuqta qo‘yilishini aytmaydi. O‘quvchilar gapni yozib, oxiriga tegishli tinish belgisini qo‘yadilar. O‘qituvchi boshqa gaplarni ham shu tartibda aytib yozdiradi.

Matn yozdirib bo‘lingach, doskadagi matn ochiladi. O‘quvchilar yozganlarini doskadagi yozuvga solishtirib, xatolarini tuzatadilar.

O‘qituvchi o‘quvchilar daftarini dars oxirida yig‘ib oladi, tekshirib, mustaqil ish singari baholaydi.

2-sinfda so‘z oxirida jarangli undosh o‘rniga uning jarangsiz jufti eshitiladigan mактаб, maqsad kabi so‘zлarning yozilishini mustahkamlash uchun «Mening Vatanim» she’ri matnidan foydalanib, ko‘rsatish diktanti yozdirish mumkin. Bizlar yosh avlod, Yashaymiz hur, shod. Mehnat-la obod, Mening Vatanim.

Bunda matn ifodali o‘qib berilgach, savol-javob yordamida o‘quvchilar avlod, shod, obod so‘zларining oxirida kelgan «D» undoshi o‘rniga uning jarangsiz jufti bo‘lgan «t» talaffuz qilinishini, ammo yozuvda «d» harfi bilan yozilishini aytib, tekshirish yo‘lini (bunday so‘zлар oxirida qaysi harf yozilishini aniqlash uchun shu so‘zга unli qo‘shib o‘qilishi kerakligini) eslaydilar. Masalan: avlod — avlodi, shod — shodon, obod — obodon kabi. Ish quyidagi tartibda davom ettiriladi.

So‘z oxirida kelgan jarangli undosh o‘rniga uning jarangsiz jufti eshitiladigan so‘zлarning yozilishini mustahkamlash maqsadida ko‘rsatish diktantining ikkinchi usulidan ham foydalanish mumkin. Bunda matn to‘liq yozilmay, balki o‘рганилиши lozim bo‘lgan mavzuga doir so‘zларгина (shod, avlod, obod) yoziladi.

O‘qituvchi «Mening Vatanim» she’ri matnini bir marta ifodali o‘qib beradi. So‘ng o‘quvchilarga o‘qitib so‘zlatadi. Matndagi shod, avlod, obod so‘zларини doskaga yozadi. Doskadagi so‘zлар ikki-uch o‘quvchiga o‘qitilgach, suhbat yordamida o‘quvchilar shu so‘zлarning aytilishi va imlosini, so‘zлarning oxirida qanday harf yozilishini tekshirish yo‘lini tushuntiradilar yoki o‘qituvchining o‘zi tushuntirib beradi. Shundan so‘ng doskadagi so‘zлар pardasidan berkitib qo‘yiladi va aytib

yozdiriladi. Shu so‘zlar yozib bo‘lingach, yozuv taxtasidagi so‘zlar ko‘rsatiladi, o‘quvchilar yozganlarini tekshiradilar.

Ko‘rsatish diktantini o‘tkazish uchun mustahkamlanishi ko‘zda tutilgan mavzuga doir matnni «Ona tili» yoki «O‘qish kitobi»dan, shuningdek, badiiy adabiyotlardan tanlashi ham mumkin.

Mazkur to‘plamda ko‘rsatish diktanti uchun tavsiya etilgan matnlardan o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining bilim saviyasi, qabo‘l qilish darajasiga qarab foydalanishi, ayrim matnlarga ijodiy yondashishi ham mumkin.

Ko‘rsatish diktanti o‘quvchilarining ko‘rish, idrok etish sezgilarini bilan eshituv sezgilarining taraqqiy etishiga yordam beradi. O‘z diktant yoki yoddan yozuv diktanti. O‘z diktant yoki yoddan yozuv boshlang‘ich sinflarning hammasida o‘tkaziladi. Bu diktant turini o‘quvchilar juda sevib, qiziqib bajaradilar. O‘z diktant yoki yoddan yozuv diktanti uchun matnni «Diktantlar to‘plami»dangina emas, balki «Ona tili», «O‘qish kitobi» darsliklaridan, “G‘uncha”, “Bilimdon” oynomalaridan ham tanlash mumkin.O‘z diktant uchun sinf o‘quvchilarining saviyasiga mos kichik bir parcha (yoki biror she’riy to‘rtlik) tanlanadi. Tanlangan matn doskaga yozib qo‘yiladi yoki har bir bolaga bir xil matn yozilgan tarqatma berilishi ham mumkin. Matnni avval o‘qituvchi o‘qib beradi. Matndagi bolalar uchun tushunarsiz so‘zlarga izoh berib, imloga doir qoidalar takrorlanadi. Shundan so‘ng matn uch-to‘rt bolaga o‘qitilgach, yod olishlari uchun bir necha daqiqa vaqt beriladi. O‘quvchilar matnni yodlab olgach, doskadagi matn berkitiladi yoki har bir bolaga bir xil matn yozilgan tarqatma bolaga ko‘rinmaydigan joyga olib qo‘yishi aytiladi. Ular yodlaganlari asosida yozib bo‘lganlaridan so‘ng matn ochiladi. O‘quvchilar yozganlarini doskadagiga yoki tarqatmaga taqqoslab tekshiradilar va xatosini tuzatadilar. Diktant o‘tkazish usulidan ko‘rinib turibdiki, matn aytib yozdirilmaydi, balki o‘quvchilar matnni yodlaydilar va mustaqil yozadilar.

Shuning uchun ham u o‘z diktant yoki yoddan yozuv diktanti deyiladi.

o‘z diktant imloga oid ma'lumotlarni singdirish, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini o‘stirish, xotiralarini mustahkamlashga yordam beradi.

«Diktantlar to‘plami»da yoddan yozuv uchun ham matnlar berilgan. o‘rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Ona tili» darsligidagi matndan foydalanib o‘z diktant o‘tkazilganda, matnni doskaga yozish shart emas. O‘z diktant o‘tkaziladigan matnni uyda yodlab kelishni topshirish ham mumkin. O‘z diktant yozdirishda o‘qituvchi quyidagi qo‘srimcha topshiriqlarni ham berishi mumkin: matndagi otlarning tagiga to‘g‘ri chiziq chizish, ayrim so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga ko‘ra bo‘laklarga ajratib yozish, matndagi fe’llarni aniqlab, tagiga ikki chiziq chizish va hokazo. o‘z diktant o‘quvchilarga matn ustida ishslash malakasining shakllanishiga ham yordam beradi va shu bilan birga ularning xotirasini mustahkamlaydi.

Ta'kidiy diktant. Ta'kidiy diktant uchun tanlangan matnni yozdirishdan oldin o‘quvchilarga o‘rganilgan qoidalar eslatilib, ayrim so‘zlarning yozilishi tushuntiriladi, sharoit talab qilsa, ayrim so‘zlarni grammatik tahlil qilib, umuman, yozish jarayonida nimalarga e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi. Shuning uchun ham mazkur ish turi ta'kidiy diktant deyiladi. Ta'kidiy diktant uchun matnni «Diktantlar to‘plami»dangina emas, balki «Ona tili», «O‘qish kitobi» darsliklaridan ham tanlash mumkin. Chunki ta'kidiy diktant o‘tkazishdan bir necha kun oldin o‘quvchilarga yozdiriladigan matnni o‘qib kelish topshiriladi. Bundan maqsad o‘quvchilarning o‘rgangan imlo qoidalarini mustahkamlash, undan amalda foydalanish ko‘nikmasini hosil qilishdir. Ta'kidiy diktant, matn asosida o‘tkazilganda, tanlangan matn bir marta o‘qib eshittiriladi. Shundan so‘ng ketma-ket kelgan bir xil undoshlar imlosi haqidagi qoida eslatiladi. O‘quvchilar qoidani aytadilar, misollar keltiradilar. Keyin g‘alla, katta so‘zlarida ketma-ket kelgan bir xil undoshlarning biri oldingi yo‘lda qoldirilib, ikkinchisi keyingi yo‘lga o‘tkazilishi haqidagi qoidani eslaydilar.

O‘quvchilar sana va matn sarlavhasini daftarlariiga yozib bo‘lgach (bo‘lar doskaga yozib qo‘yiladi), matn aytib yozdiriladi. Matn yozib bo‘lingach, o‘qituvchi uni

qayta o‘qib berishi, o‘quvchilar yozganlarini kuzatib borib, yo‘l qo‘ygan xatolarini tuzatishlari mumkin. Shundan keyin ularning daftarlari yig‘ib olinadi.

Izohli diktant. Izohli diktant boshlang‘ich sinflarning barchasi uchun mos bo‘lib, o‘quvchilarga yozdirilgan matn tarkibidagi imlosi qiyin so‘zlarning yozilishini tushuntirish va ma’nosini izohlash maqsadida o‘tkaziladi. Belgilangan matn o‘quvchilarga yozdiriladi. Undagi so‘zlarning imlosi eslatilmaydi. O‘quvchilar matnni yozib bo‘lganlaridan keyin undagi so‘zlarni qanday yozganliklari tekshiriladi. Albatta, o‘quvchilar yozuvida ayrim xatolar bo‘lishi mumkin. o‘quvchilar yozuvidagi xatolar quyidagi tartibda tuzatilib, izohlanishi mumkin:

- a) o‘quvchilardan biri aytgan so‘zdagi xatoni boshqa bir o‘quvchi og‘zaki izohlaydi;
- b) o‘quvchi xatosini o‘qituvchi og‘zaki izohlaydi;
- d) o‘quvchi yozgan xato so‘zni o‘qituvchi doskaga yozib ko‘rsatadi.

Shu tartibda o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolarini topib, ularni tuzatadilar. Bu bilan o‘quvchilarning imlo savodxonligini aniqlash va kamchiliklarini tuzatish mumkin.

Izohli diktant uchun matnni o‘quv darsliklaridan ham tanlash mumkin. Bunday holatda matnni o‘quvchilarga yozdirib bo‘lgandan keyin, ular kitoblarini ochib, yozganlarini taqqoslab ko‘radilar. O‘zlari sezgan xatolarini tuzatadilar. Lekin hamma o‘quvchilar ham o‘z xatolarini topa olmaydilar. Shuning uchun ular bilan alohida ish olib borishga to‘g‘ri keladi.

Ta’limiy diktantning boshqa turlari kabi izohli diktantni ham yozuv darsining ma'lum bir qismida o‘tkazish mumkin. Izohli diktant o‘quvchilar bilimini oshirishda eng foydali yozma ish turlaridan biri hisoblanadi. Bu diktant turini 3—4-sinflarda tez-tez o‘tkazib turish maqsadga muvofiq.

Ijodiy diktant Ijodiy diktant o‘rganilgan qoidalarni o‘zlashtirish va yozuvda o‘rinli qo‘llash malakalarini mustahkamlash bilan birga, o‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ijodiy diktantda o‘quvchilarga

o‘rganilgan qoidaga mos so‘z, so‘z birikmali, biror mavzuga oid savollar beriladi. Ular berilgan so‘z va so‘z birikmalarini qatnashtirib, savollarga javob topish orqali matn yoki hikoyacha tuzadilar.

O‘qituvchi ana shu berilgan so‘zlar yoki so‘z birikmali yordamida tuziladigan hikoya mazmuni va ishni bajarish usuli haqida o‘quvchilarga tushuncha berishi kerak, chunki ijodiy diktant matnini o‘quvchilarning o‘zlari ijod qiladilar va o‘qituvchi ko‘rsatmasiga ko‘ra uni yozadilar. Shuning uchun bu diktant turi ijodiy inshoga o‘xshab ketadi.

O‘quvchilarda ijodkorlik faoliyatini yoshlikdan tarbiyalash maqsadida ijodiy diktantni izchillik bilan tez-tez o‘tkazib turish lozim. Bu bilan o‘quvchilarni yuqori sinflarda ijodiy xarakterga ega bo‘lgan yozma ishlarni bajarishga, xususan, insho yozishga tayyorlanadi.

Ijodiy diktantdan 1—4-sinflarda keng foydalaniladi. Alifbe davridanoq o‘quvchilarni ijodiy diktant yozishga tayyorlab boriladi.

Buning uchun quyidagi tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi:

1. Berilgan so‘zlardagi tushirib qoldirilgan tovushlarni aytish va shu tovushni ifodalovchi harfni tanlab, so‘zni yozish: m.na (man), bo.o (bobo).
2. Berilgan gapdagi nuqtalar o‘rniga gapning mazmuniga mos so‘z tanlab aytish va yozish: o‘quv qurollarimni... (yaxshi) saqlayman.
3. Berilgan so‘zlardan gap tuzish va uni o‘qituvchi ko‘rsatmasi bilan yozish: erta, bu, keldi, yil, bahor (Bu yil bahor erta keldi).
4. Berilgan savolga mustaqil javob topish va uni yozish: o‘quvchi nima qiladi? (o‘quvchi o‘qiydi, yozadi va dam oladi).

Bunday ijodiy diktantga tayyorgarlik mashqlarida ko‘proq o‘quvchilar noto‘g‘ri talaffuz qilishi sababli xatoga yo‘l qo‘yadigan so‘zlardan tanlanishi maqsadga muvofiq bo‘lib, foydali natija beradi.

Ijodiy diktant quyidagicha o‘tkazilishi mumkin:

1. Berilgan so‘zlardan qatnashtirib gap tuzish va uni yozish. Ijodiy diktantning bu turi boshlang‘ich sinflarning hammasida o‘tkaziladi. Masalan, 2-sinfda harakat bildir-gan so‘zlar mavzusi o‘tilganda, biror-bir narsa harakatini bildiradigan bir necha so‘zlardan qatnashtirib gap tuzish topshirig‘i beriladi. Berilgan vaqt o‘tgach, o‘qituvchi o‘quvchilardan tuzgan gaplarini o‘qishini so‘raydi. O‘quvchilar quyidagi gaplarni o‘qiydilar: Echki mo‘raydi. Ot kishnaydi. Xo‘roz qichqiradi.

O‘quvchilarning talaffuzda yo‘l qo‘ygan xatolari tuzatiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar aytgan gaplardan ma’qulini tanlab, aytib yozdiradi. Ish shu tarzda davom etadi. O‘quvchilarda ijodiy diktant yozish malakasi hosil bo‘lgach, tanlangan gapni tuzgan o‘quvchining o‘zi aytib yozdirishi mumkin.

2. Berilgan so‘zlardan gap tuzish va uni yozish. Ijodiy diktantning bu turida gap tuzish uchun zarur bo‘lgan so‘zlar aralash, oralariga vergul qo‘yilgan holda beriladi. O‘quvchilar bu so‘zlar ishtirokida bittadan gap tuzib aytadilar. Ularning yo‘l qo‘ygan xatolari tuzatiladi. To‘g‘ri tuzilgan gaplarni o‘qituvchi yoki shu gapni tuzgan o‘quvchining o‘zi aytib yozdiradi. Ijodiy diktantning bu turi bo‘yicha o‘quvchilarda malaka hosil bo‘lgach, o‘zlari tuzgan gaplarini mustaqil ravishda yozadilar. 3—4-sinflarda esa har bir gap uchun 3—4 tadan alohida so‘z emas, balki o‘rganilgan grammatik qoidalarni hisobga olgan holda, bir yo‘la 20—30 ta so‘z doskaga yozib beriladi. Ana shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish va tuzilgan gaplardan hikoya hosil qilish tushuntiriladi. Masalan, 3-sinfda o‘qituvchi quyidagi so‘zlarni doskaga yozib berib, «Oromgohda» mavzusida gaplar yoki kichik hikoya tuzishni topshiradi: o‘quvchi, yoz, oromgoh, jismoniy tarbiya, shug‘ullan, kinofilm, ko‘p, albom, tuz, hayot, tog‘, yaqin, sayohat, turli, barg, bola, suv, muzdek, maza, kungilli, ta’til, o‘tkaz. Bolalar tuzgan gaplarini aytadilar. O‘qituvchi ular yo‘l qo‘ygan xatolarini tuzatadi va «Oromgohda» mavzusida hikoya hosil qiladigan gaplarni tanlab yozdiradi. Buning uchun u berilgan so‘zlardan hikoya tuzib qo‘ygan bo‘lishi kerak, aks holda ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarning tuzgan gaplarini yoki ma’qul bo‘lsa, o‘quvchilar tuzgan

hikoyani bir marta o‘qib berishi, keyin mustaqil yozishni topshirishi mumkin. Ijodiy diktantning bu turida ma’lum bir mavzuda hikoya tuzish uchun o‘rganilgan qoidalarga mos so‘z birikmalarini berish mumkin. Bunda ham o‘quvchilar doskaga yozilgan so‘z birikmalarini qatnashtirib hikoyacha tuzadilar.

3. Ma’lum bir mavzuda berilgan savollarga javob qaytarish va uni yozish. Ijodiy diktantning bu turini o‘tkazish uchun o‘tilgan mavzuga mos bo‘lgan bir necha savol doskaga yoziladi. Savollarga o‘quvchilar avval og‘zaki javob qaytaradilar, keyin har bir savolga berilgan javobni daftarlariiga yozadilar. Masalan, 2-sinfda kishilarning ismi, familiyasining, shahar, qishloq, ko‘cha, daryo nomlarining bosh harflar bilan yozilishi mavzulari o‘tilgach, mavzuni mustahkamlash maqsadida quyidagi savollardan foydalaniib, ijodiy diktant o‘tkazish mumkin:

1. Sening isming nima?

2. Familiyang-chi?

3. Qaysi shaharda (yoki qishloqda) yashaysan?

4. Qaysi ko‘chada (yoki jamoa xo‘jaligida) turasan?

5. Nechanchi sinfda o‘qiysan?

6. Qaysi fanlarga qiziqasan?

O‘quvchilar savollarga og‘zaki javob berganlarida, bosh harf bilan yoziladigan otlarni aniqlaydilar, nima uchun bosh harf bilan yozilishini aytadilar.

O‘quvchilar ijodiy diktantni, taxminan, quyidagi mazmunda yozadilar:

Mening ismim Abdulla. Familiyam Rashidov. Men Toshkent shahrida yashayman. Tinchlik ko‘chasida turaman. Men uchinchi sinfda o‘qiymen.

Mening ismim Hakimjon. Familiyam Qodirov. Men Navro‘z jamoa xo‘jaligida turaman. Ikkinchi sinfda o‘qiymen. Tasviriy san'at va mehnat ta‘limi darslariga juda qiziqaman.

Ijodiy diktantni har bir mavzudan so‘ng o‘tkazish maqsadga muvofiq. Ijodiy diktant o‘tkazilganda gap yoki matn tuzish uchun zarur bo‘lgan so‘zlar, so‘z birikmalari yoki gaplar doskaga yozilib, o‘quvchilar diktant yozayotgan vaqtida doska vaqtincha parda bilan berkitib qo‘yiladi. So‘ng doskadagi yozuv bilan solishtirib, xatolarini tuzatadilar. Diktantning bu turini tez-tez o‘tkazish o‘quvchilarda izlanish, ijod qilish, mantiqiy fikrlash kabi aqliy faoliyatlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Erkin diktant. Erkin diktant ta’limiy diktantning bir turi bo‘lib, o‘quvchilar nutqini o‘sirishga, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Erkin diktant uchun hikoya tarzidagi uncha katta bo‘lmagan matn tanlanadi. Matnda o‘quvchilar yozishda qiynaladigan yoki imlosi o‘rganilmagan so‘zlar ishtirok etgan bo‘lsa, matn mazmuniga putur yetkazmagan holda, uni boshqa so‘zlar bilan almashtirish yoki tushirib qoldirish mumkin. Diktantning bu turida o‘quvchilarga o‘qilgan bo‘limning mazmunini buzmagan holda, gaplarning shaklini o‘zgartirib yozish erkinligi beriladi. Masalan, «Quyosh chiqdi, hamma yoqqa nurini sochdi» gapining shaklini o‘zgartirib, o‘quvchilar «Quyosh o‘z nurini sochdi», «Quyosh nurini hamma yoqqa sochdi», «Quyosh chiqib, nurini sochdi» kabi shakllarda yozishlari ham mumkin. Yoki «Nosir erta bilan turdi. Yuz-qo‘lini yuvdi. Nonushta qildi va maktabga ketdi» kabi uchta gap bilan ifodalangan mazmunni o‘quvchilar «Nosir erta turib yuvindi. Nonushta qilib, maktabga ketdi» kabi ikkita gap bilan yozishlari mumkin. Shuning uchun ham bunday diktant erkin diktant deyiladi.

Erkin diktant o‘quvchilarni bayon yozishga tayyorlaydi. Ayrim o‘quvchilar sheva ta’sirida anor so‘zini onor, kelyaptilar so‘zini kevottilar kabi yozib qo‘yishlari ham mumkin. Bunday xatoning oldini olish uchun o‘qilgan bo‘lim mazmunini o‘quvchilar erkin ravishda yozganlarida, adabiy til me'yoriga to‘la riosa qilishlari tushuntiriladi. Erkin diktant quyidagicha o‘tkaziladi: o‘qituvchi o‘quvchilarga erkin diktant va uni yozish tartibini qisqa tushuntiradi. O‘qituvchi doskaga, o‘quvchilar esa yozuv daftarlariiga sana, ish turi (erkin diktant) va tanlangan matn sarlavhasini yozadilar. O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini jalb qilgan holda, matnni

bir marta ifodali o‘qib beradi. Matn mazmuni yuzasidan suhbat o‘tkazilgach, bir-ikki o‘quvchi matnni so‘zlab beradi va o‘quvchilar qanchalik tushunganliklari aniqlanadi.

Tanlangan matnda o‘quvchilar ma’nosiga tushunmagan yoki imlosi hali yaxshi o‘zlashtirilmagan so‘zlar bo‘lsa, o‘qituvchi doskaga yozib qo‘yadi, lozim topsa, shu so‘zlarning ma’nosini, talaffuzini va yozilishini qisqa izohlaydi.

O‘quvchilar diqqati jalb qilinadi va matn yana bir marta o‘qib beriladi. O‘quvchilar o‘qilgan bo‘lim mazmunini yozib bo‘lganlardan keyin, matndagi yozilishida xatoga yo‘l qo‘yilgan so‘zlar izohlanib, o‘quvchilarning to‘g‘ri yozishlari ta’milanadi. Ish shu tartibda davom etadi. Erkin diktantni tez-tez o‘tkazish o‘rganilgan grammatik shakllardan, imlo va tinish belgilariiga oid qoidalardan amaliy foydalanishga, boshqalarning nutqini aynan yoki o‘zlashtirib qo‘llashga o‘rgatadi. Shu bilan birga, eshituv sezgilarining taraqqiy etishiga, ijodkorlik faoliyatlarining o‘sishiga yordam beradi.

Diktantning bu turi alohida ahamiyatga molik bo‘lib, undan qanchalik ko‘p foydalanilsa, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash shuncha tez qaror topadi.

Tekshiruv diktanti. Tekshiruv diktanti o‘quv dasturining biror bo‘limi o‘rganilib, xilma-xil ta’limiy mashqlar bilan mustahkamlangach, ular o‘quvchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganini sinash maqsadida o‘tkaziladi.

Tekshiruv diktanti uchun sintaktik tuzilishi jihatidan shu sinf o‘quvchilari saviyasiga mos, o‘rganilgan imlo qoidalari asosida yoziladigan so‘zlar va tinish belgilari ko‘proq qo‘llanilgan matn tanlanadi. Matnda o‘rganilmagan qoida asosida yoziladigan va imlosi qiyin so‘zlar bo‘lmasligi kerak.

Tekshiruv diktanti uchun matnlardangina emas, balki o‘rganilgan qoidalarni o‘z ichiga olgan alohida terma gaplardan ham foydalanish mumkin. Lekin har ikki holda ham gaplardagi so‘zlar soni DTS talablariga mos bo‘lishiga e’tibor berish lozim.

Tekshiruv diktanti uchun tanlangan matnda so‘zlar soni DTSga ko‘ra quyidagicha bolishi lozim: 1-sinfga savod o‘rgatish davridan so‘ng 8—10 so‘z, o‘quv yili oxirida 15—20 ta so‘z, 2-sinf o‘quv yilining birinchi yarmida 10—12 ta so‘z, o‘quv yili oxirida 30—40 ta so‘z; 3-sinf o‘quv yilining birinchi yarmida 20-30 ta so‘z, o‘quv yili oxirida 50—60 ta so‘z; 4-sinf o‘quv yilining birinchi yarmi oxirida 30—40 ta so‘z; o‘quv yili oxirida 75—80 ta so‘z.

Ko‘rinib turibdiki, o‘quv yili oxirida o‘tkaziladigan diktantdagi so‘zlar soni keyingi o‘quv yili boshida o‘tkaziladigan diktantdagi so‘zlar soniga teng bo‘ladi va asta-sekin ortib boradi.

## **2.2. NUTQIY XATOLAR VA ULARNI BARTARAF QILISH KREATIV**

### **YO'LLARI**

O`quvchilarga diktant yozdirilganidan keyin uni tekshirish, baholash va navbatdagi yozuv darsida uni tahlil qilishi muhim ta'lif-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Chunki o`quvchilar diktantni yozganlaridan keyin yo'l qo'ygan kamchiliklarini va olgan baholarini bilishga qiziqadilar. Tekshirilgan diktantni belgilangan vaqtda tahlil qilish bilan o`quvchilarning ana shu istaklari qondiriladi. Bundan tashqari, diktantda yo'l qo'ygan xatolari takrorlanishining oldi olinadi.

Ayrim o`qituvchilar kun ora diktant yozdirsalor ham, uning natijasi bilan o`quvchilarni xabardor qilmaslik hollari uchraydi. Bunda o`quvchilar savodxonligi tekshirib ko`riladi-yu, kamchiliklarning oldi olinmaydi. Natijada, o`quvchi qaysidir so`z yoki gapni bir necha marta xato yozib qo'yadi. Buning oldini olish uchun barcha turdag'i yozma ishlar me'yoriga rioya qilish va vaqtida tekshirib, tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

O`quvchilarning barcha turdag'i yozma ishlarini tekshirishda imlo va tinish belgilaridagi xatolar bilan bir qatorda chiroyli yozuv sifatiga ham e'tibor beriladi.

1—2-sinflarda o`quvchi xato yozgan so`zni chizib, ustiga to'g'risini yozib ko`rsatiladi. Tinish belgilari ham shu tartibda to'g'rilanadi.

3—4-sinflarda o`quvchi xato yozgan so`zning tagiga chizib qo'yilishi kifoya. Tinish belgilari qo'yilmagan bo'lsa qo'yiladi, xatolari bo'lsa, tuzatiladi.

O`quvchilar yozma ishini baholashda quyidagi me'yordan foydalanish mumkin:

— agar o`quvchi xatosiz, chiroyli yozib, topshiriqlarni ongli bajargan bo'lsa, uning ishini namuna sifatida maqtab, ko'rgazmaga qo'yiladi;

— agar o`quvchi yozma ish va qo'shimcha topshiriqlarning to'rtadan uch qismini to'g'ri va ongli bajarsa, «4» baho qo'yiladi. Uning xatolari asta tushuntiriladi va unda keyingi safar, albatta, a'lo bajarishi mumkinligiga ishonch hosil qilinadi;

— agar o‘quvchi yozishi va bajarishi kerak bo‘lgan ishning yarmidan ko‘prog‘ini to‘g‘ri va ongli bajarsa, bunday o‘quvchi bilan qo‘srimcha ravishda ish olib boriladi.

1-sinf o‘quvchilarining ishlari «qoniqarli» yoki «qoniqarsiz» deb og‘zaki baholanadi.

2-4-sinf o‘quvchilarining ishlari quyidagicha baholanadi:

— agar o‘quvchi tekshirish diktantini to‘g‘ri va chiroyli yozgan, biroq ayrim harflarni tuzatgan bo‘lsa, keyingi safar xatoga yo‘l qo‘ymasligi ta’kidlanadi;

— agar o‘quvchi diktantda 2 ta imlo va bitta tinish belgilariga oid xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, shuningdek, ayrim harf shakllarini noto‘g‘ri yozib tuzatgan bo‘lsa, bunday o‘quvchilar bilan yakkama-yakka ish olib boriladi;

— agar o‘quvchi 3 ta imlo va 2-3 ta tinish belgilariga oid yoki 4 ta imlo va 2 ta tinish belgilariga oid va undan ko‘p xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, yozuv sifati talabga javob bermasa va tuzatishlari bo‘lsa, bunday o‘quvchilarga amaliy yordam beriladi.

Diktantda quyidagi xatolar hisobga olinmaydi:

- a) o‘quvchilarga o‘rgatilmagan qoidalar yuzasidan qilingan xatolar;
- b) gap oxiriga nuqta qo‘yilmagan bo‘lsa-yu, keyingi gap bosh harf bilan yozilsa;
- d) gap ma'nosini buzmagan holda biror so‘z boshqa so‘z bilan almashtirib yozilsa.

o‘quvchilar ishini tekshirish va baholash ehtiyyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. Buning uchun xatolarning sabablari aniqlanib, ko‘pchilik o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘ydgan xatolar ustida ishlanadi. Jumladan, o‘quvchilar quyidagi sabablarga ko‘ra xato yozishlari mumkin:

— gap yoki undagi biror so‘z ma'nosini tushunmaganlarida. Shuning uchun yozdiriladigan matnda o‘quvchilarga notanish so‘zlar bo‘lsa, doskaga yozib ko‘rsatish va ma'nosini tushuntirish lozim.

— imlo va grammatika qoidalarini ongli o‘zlashtirmaganliklari sababli. Bu xatolikning oldini olish uchun, albatta, darslarda har bir qoidaning o‘quvchilar tomonidan puxta va mustahkam o‘zlashtirilishiga e'tibor berish kerak. Buning uchun o‘rganilgan qoidaga daxldor mashqlarni bajarish, har bir mashqni bajarishda ularga daxldor qoidani eslatib turish zarur;

— imlo qoidalarini bilsa ham, uni unutib qo‘yish natijasida. Bunday xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun shu qoidaga oid mashqlardan ko‘proq ishlatish kerak. Masalan, «Shahar nomlari bosh harf bilan yoziladi» qoidasi o‘rganilganidan keyin, *Namangan, Toshkent, Samarqand* kabi shahar nomlari yozib ko‘rsatiladi. Shahar nomlari gap orasida kelganda ham o‘quvchilar xatoga yo‘l qo‘yishlari mumkin.

Demak, o‘quvchilar bilimi puxta emasligi, e'tiborsizlik bilan yozishlari, imlo qoidalarini unutib qo‘yishlari va yozayotgan so‘zlarining ma'nosiga tushunmasliklari natijasida xatolarga yo‘l qo‘yar ekanlar. Bunday xatolarning oldini olish uchun diktant yozdirishdan oldin o‘rganilgan qoidalarga mos turli mashqlarni bajartirish lozim.

O‘quvchilarning ko‘pchiligi xato yozgan so‘zlar to‘g‘rilaridanib, doskaga ustun shaklida yoziladi. Bu so‘zlarni o‘quvchilar daftarlariغا ko‘chirib yozadilar. Yozdirilgan matn tekshirilib, baholanganidan keyin navbatdagi yozuv darsida yoki darsning bir qismida o‘quvchilar bilan tahlil qilinadi. Tahlil, xatolar ustida ishlash o‘quvchilarning savodxonligini oshirishga ijobiyligi ta'sir etadi.

4-sinfda grammatik topshiriqli diktanti boshlang‘ich ta’lim DTS va o‘quv dasturi (ona tili fani)da belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida baholanadi. Har bir javob 5 ball bilan baholanadi va umumiy ball topshiriqlar soniga bo‘linadi.

- imloviy savodxonlik darajasi;
- tinish belgilarining to‘g‘ri ishlatalishi;
- fonetik tahlil;
- so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil;
- so‘z turkumiga ko‘ra tahlil;
- gap bo‘laklariga ko‘ra tahlil;
- leksik tahlil (ma’nodosh, shakldosh, qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni topish);
- xatboshiga rioya qilinishi;
- yozuvning husnixat qoidalariga muvofiqligi;
- diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

O‘qituvchi o‘rganilgan va mashqlar bilan mustahkamlangan mavzuga mos matnni diktant o‘tkazishdan bir necha kun oldin tanlaydi. Matnda shu sinf o‘quvchilari uchun imlosi qiyin so‘z bo‘lsa (yaxshisi matnda o‘rganilmagan so‘zlar bolmagani ma’qul), shu so‘zlarning ma’nosи, talaffuzi va yozilishi diktantni yozgunga qadar bo‘ladigan ona tili darslarida tushuntirilib, mashqlar bilan mustahkamlanishi lozim. Shuning uchun imlosi qiyin so‘zni qatnashtirib gap tuzish, so‘zning talaffuzi va yozilishini tushuntirish, imlosi qiyin so‘z qatnashgan gapni tahlil qilish, shu so‘zni bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga ko‘ra qismlarga bo‘lib yozish kabi mashq turlaridan foydalanish mumkin. O‘quvchilar tekshirish diktanti yozishlari haqida ikki-uch kun oldin, o‘tilganlarni takrorlab, mustahkamlash darsida ogohlantiriladi yoki tinish belgilariga oid qaysi qoidalari takrorlash kerakligi ta’kidlanadi.

O‘tkaziladigan tekshirish diktanti matnini tanlashga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, matnda shu sinf o‘quvchilari yozishda qiynaladigan yoki o‘rganilmagan qoidalar asosida yoziladigan imlosi qiyin so‘zlar bo‘lmasligi, agar shunday so‘zlar uchrasa, uni o‘qituvchi doskaga yozib berishi lozim. Bunday so‘zlar ikki-uchtadan oshmasligi kerak. Tekshiruv diktanti quyidagi tartibda o‘tkaziladi: o‘quvchilarning darsga hozirligi ko‘zdan kechirilgach, o‘qituvchi o‘quvchilar diqqat-e’tiborini o‘ziga qaratgan holda, diktant matnini

shoshmasdan, bir marta ifodali o‘qib beradi. Matndagi gaplarning ohangiga rioya qilib ifodali o‘qilishi tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yishga, matnning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyatini bolalar ongiga singdirishga yordam beradi. Buning uchun, o‘rni kelganda, turli imo-ishoralardan foydalanish, baland yoki past ovozda o‘qib berish ham mumkin. O‘qituvchi matndagi ma’nosi yoki imlosi qiyin so‘zlarni doskaga yozib, talaffuzi va imlosini qisqa izohlaydi. Keyin o‘qituvchi doskaga, o‘quvchilar esa daftarlariga sana, ish turi (tekshiruv diktanti) va sarlavhani tartib bilan, har birini xat-boshidan yozadilar. Shundan so‘ng matn aytib yozdiriladi. O‘qituvchi sodda yig‘iq gaplarni butunicha, sodda yoyiq gaplarni so‘z birikmasiga va qo‘shma hamda sodda gaplarni ma’noli qismlarga bo‘lib aytib turadi. Shuni ta’kidlash zarurki, so‘zni bo‘g‘inlab yoki so‘zma-so‘z aytish yaramaydi. Har bir gap yoki so‘z birikmasi ko‘pi bilan uch marta takrorianishi lozim. Aytish sur’ati shu sinf o‘quvchilarining gaplarni yozib ulgurishlarini hisobga olgan holda belgilanishi kerak. Tekshiruv diktanti yozib bo‘lingach, o‘quvchilar diqqatini jalb etib, o‘qituvchi matnni sekinroq sur’at bilan yana bir marta o‘qib beradi. O‘quvchilar o‘z yozuvlarini mustaqil ravishda tekshirishlari uchun matn o‘qib bo‘lingach, biroz muddat (ikki-uch daqiqa) beriladi. Bu vaqt ichida o‘quvchilar o‘z ishlarini tekshiradilar, xatolarini tuzatib, ular e’tiborining bo‘linmasligiga ahamiyat beradi. O‘quvchilar o‘rtoqlarining ishini ko‘rishga, u yoki bu so‘zni qanday yozganlarini bilishga qiziqadilar, ba’zan o‘rtog‘ining ishini ko‘rib, o‘zining to‘g‘ri yozgan so‘zini o‘zgartirishga urinish hollari ham uchraydi. Bunday paytlarda o‘qituvchi bolalarga mustaqil ishslash, fikrlash lozimligini eslatadi.

O‘quvchilar imlo va tinish belgilarga oid qoidalarni qay darajada o‘zlashtirganliklarini, ulardan amaliy foydalana olishlarini, ko‘nikmalarini sinash bilan birga, grammatik mavzularni ongli o‘zlashtirishlarini tekshirish maqsadida boshlang‘ich sinflarda grammatik topshiriqli tekshirish diktanti ham o‘tkaziladi.

Grammatik topshiriq darsdan oldin doskaga yozilib, pardal bilan to‘sib qo‘yiladi (ko‘chma doska yoki katta qog‘ozga yozib foydalansa ham bo‘ladi). O‘quvchilar tekshirish diktanti matnini yozib bo‘lgach, o‘rganilgan mavzular yuzasidan

berilgan grammatik topshiriqlarni bajaradilar. Grammatik topshiriqlar quyidagi mazmunda bo‘lishi mumkin: biror gapda qatnashgan so‘zlardagi unli yoki undosh harflarning tagiga chizish; berilgan so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga ko‘ra bo‘laklarga ajratib, chiziqcha bilan yozish; talaffuzida va yozilishida farq qilgan undoshlarni aniqlab, tagiga chizish; talaffuzda tushib qoladigan undoshning tagiga chizish; gaplarning (ular aniq ko‘rsatiladi) ega va kesimini aniqlab, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to‘g‘ri chiziq chizish; biror gapdagi so‘zlearning o‘zak va qo‘shimchalarini aniqlab, chiziqlar bilan belgilab ko‘rsatish. (Masalan, ishla: o‘zak ish, so‘z yasovchi qo‘shimchasi — Ia; ishdan: o‘zak — ish, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha — dan kabi); sifatlarni aniqlab, tagiga to‘lqinli chiziq chizish; matndagi bo‘lishsiz fe'llarning tagiga ikki to‘g‘ri chiziq chizish; matndagi biror so‘zga (so‘z aniq ko‘rsatiladi) o‘zakdosh so‘zlar tanlash; ikki yoki uch gapdagi (gaplar aniq aytildi) ega, kesim va ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlab, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to‘g‘ri chiziq, ikkinchi darajali bo‘laklarning tagiga to‘lqinli chiziq chizish; kelishiklar bilan turlangan otlarni aniqlab, kelishik nomini yozish; egalik qo‘shimchasi tagiga chizish va ustiga shaxs-sonini yozish; kishilik olmoshlarining tagiga chizib, ustiga shaxs-sonini yozish; shaxs va sonda tuslangan fe'llarni aniqlab, shaxsi, soni, zamonini yozish.

Shuningdek, o‘quvchilarning umumiyligi saviyasini, eshitish, ko‘rish qobiliyatlarini, tevarak-atrofda bo‘layotgan o‘zgarishlar, yoshlikdan o‘zlar bajarishi lozim boigan barcha ishlarning mohiyatiga tushunib, hayotga tatbiq etishlarini hisobga olib, iqtisodiy, huquqiy, ayniqsa, ekologiyaga doir mavzularda ham matnlar berildi. Bu matnlarni eshitib yozish orqali ularda mas’uliyatni his va idrok etish uquvi paydo boiadi. Musiqa orqali ta’sir etish uchun diktant yozish paytida mayin kuy eshittirish, diktant yozish oralig‘ida jismoniy harakatlar bajarib, dam olish daqiqasini o‘tkazish, tasviriy san'at, badiiy mehnat, matematika fanlari bilan ham bog‘lash o‘quvchilar savodxonligini, estetik didini o‘stirishga yordam beradi.

Diktantda xatoga yo'l qo'ygan o'quvchi ustozining tuzatishlariga, albatta e'tibor bilan qaraydi. “Biroq bu ko'zdan kechichirish keyingi gal o‘quvchining shu

so'zni xatosiz yozishiga asos bo'lolmaydi. Xo'sh, shunday ekan, «Xatolar ustida ishslash» soatlari qanday tashkil qilinsa, bola shu xatoni keyingi gal takrorlamasligiga va imlo savodxonligining yaxshilanishiga erishish mumkin? Quyida aynan kreativ yondashgan holda malakali pedagoglar tajribasini o'rganib, o'quvchilar savodxonligini rivojlantirish usullari bayon etiladi.

BMIda xato yozishdagi asosiy muammolar o'rganib quyidagilar aniqlandi:

Diktantda yo'l qo'yilgan xato o'quvchi yoshi va sinfdan kelib chiqib, u bilishi zarur deb qaralgan biror mavzuni yaxshi o'zlashtirmaganini bildiradi. Qolaversa, o'quvchi yo'l qo'yayotgan xatoga qarab, uning nutqiy rivojlanish darajasi va muammoli jihatlari haqida xulosa chiqarish mumkin.

Tovushlarni almashtirib yoki xato gapiradigan bola, albatta, diktantda ham o'sha so'zlarni xato yozadi. Tazyiq ostida bo'lib, kimdandir yoki nimadandir muntazam qo`rilib yurgan o'quvchi ham so'zlarning oxiridagi harflarni qoldirib ketadi. Xullas, imlo masalasi doimo dolzarb va jiddiy bo`lib kelgan. Shu bois u pedagogikada hal etilishi shart bo'lgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mutaxassislar imloviy savodxonlikni shakllantirish uchun imlo qoidalari ustida muntazam ishlab, bir qator ta'limiy diktantlarni o'tkazishni va o'quvchilarning imloviy savodxonlik darajasini muntazam tekshirib, tahlil qilib borishni maslahat beradi. Ammo ular ustida ishlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilar yo'l qo'yayotgan xatolarni guruhlashtirib olishi zarur.

Boshlang`ich sinf o'quvchilarini ona tili daftalarini ko`zdan kechirsak, quyidagi xatolarga duch kelamiz:

- grafik xatolar : harf elementlarini tashlab ketish, harflarni tushib qoldirish, ularning o'rnilarini almashtirib qo'yish va h.k.
- so'z asosidagi xatolar: jarangli va jarangsiz undoshlarni almashtirish, yonmayon kelgan bir xil undoshlarning birini tashlab ketish, talaffuzda tushib qoladigan undoshlarni yozuvda ham tashlab ketish;
- so'z va shakl yasovchi qo'shimchalarni xato yozish;
- bo'g'in ko'chirishdagi xatolar;
- bosh harflarni qo'llashdagi xatolar;

- shevaga oid xatolar.

Boshlang`ich sinflarda o`quvchilar quyidagi xatolarga yo`l qoyadilar: nutqiy xatolarga noto`g`ri (noo`rin) tanlangan so`zlar, noto`g`ri tuzilgan gaplar, morfologik shakllarni noto`g`ri ishlatish kiradi. Boshlang`ich sinflarda bunday xatolar ustida ishslash ancha qiyin, chunki ularni to`g`rilash va oldini olish uchun ona tili dasturida berilgan qisqa nazariy ma'lumot yetarli emas. Bolalar nutqini takomillashtirish ustida rejali, muntazam ish olib borish uchun asosiy nutqiy xatolar turini bilish zarur. Bunday nutqiy xatolarni o'rganish, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablarini tekshirish xatolarni to`g`rilash va oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

Nutqiy xatolar uch turga ajratiladi: ***lug'aviy-uslubiy, morfologik- uslubiy, sintaktik-uslubiy.***

Boshlang`ich sinflarda lug'aviy-uslubiy xatolar ko'proq uchraydi. Bunday xatolarga quyidagilar kiradi:

**1. Bir so'zni qayta-qayta ishlatish.** Bunday xatoning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, o'quvchi so'zni ishlatishga kam e'tibor beradi va faol lug'atidagi so'zdan takroriy foydalanadi; ikkinchidan, o'quvchining so'z boyligi kam, sinonimlarni bilmaydi, takrorlanadigan so'zlar o'rniغا olmoshlardan foydalana olmaydi.

Agar o'qituvchi bir so'zni qayta-qayta ishlatmaslik uchun uning ma'nodoshlaridan yoki shu so'z o'rniغا olmoshlardan foydalanish kerakligini yaxshi tushuntirsa, kichik yoshdagি o'quvchi matnni e'tibor bilan o'qib, takrorlarini nisbatan tez tuzata oladi.

**2. So'zning ma'nosini yoki ma'no qirrasini tushunmaslik natijasida uni aniq ma'nosida ishlata olmaslik.** Bunday xato bolaning nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, so'z boyligining kamligi sababli yuzaga keladi.

Leksik xatolar xilma-xil bo'lgani uchun uni to'g'rilash va tushuntirish usullari ham turlicha, ammo bunday xatolarning oldini olishning umumiy yo'li bor: bu yaxshi nutqiy sharoit yaratish, o'qilgan va qayta hikoya qilingan matnni til tomondan tahlil qilish, matndagi so'zlarning ma'no qirrasini tushuntirishdir. Morfologik-uslubiy xatolarga so'z shaklini, so'z o'zgartuvchi va so'z yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llashdan kelib chiqadigan xatolar kiradi. Sintaktik-uslubiy xatolarga so'z birikmasi va gap tuzishga oid xatolar kiradi. Bunday xatolar juda xilma-xildir.

Kompozitsion, mantiqiy va dalillarni noto'g'ri bayon qilish nutqiy xato hisoblanmaydi. Tipik kompozitsion xatoga insho, hikoya, bayonning tuzilgan rejaga mos kelmasligi, ya'ni voqea, kuzatishlarni bayon etishda izchillikning buzilishi kiradi. Inshoga tayyorgarlik vaqtida o'quvchilar kuzatish, material to'plash, dalillarni tanlashda tartibsiz, rejasiz ish tutsalar, hikoyani qanday boshlash, keyin nimalar haqida yozish va uni qanday tugatishni aniq ko'z oldilariga keltira olmaydilar, natijada kompozitsion xatoga yo'l qo'yadilar. Bunday xato hikoya mazmunini to'liq qamrab ololmaslik, materialni o'z o'rni joylashtira olmaslik natijasidir. Inshoni rejali, izchil yozish ko'nikmasi murakkab ko'nikma bo'lib, u o'quvchilarda muntazam bajariladigan mashqlar yordamida asta shakllana boradi. Mantiqiy xatolar:

1. Tasvirlanayotgan voqea-hodisa uchun zarur bo'lgan so'z, ba'zan zarur lavha, dalil tushirib qoldiriladi. Bunday xatoning sababini tushunish uchun o'quvchining insho yozish vaqtidagi ruhiy holatini kuzatish talab etiladi. U sekin yozadi, ammo ishga berilib ketib, tez fikrlaydi, ya'ni u hikoya mazmunini biladi, ammo tez fikrlash va sekin yozish natijasida ayrim o'rinalar yozuvda aks etmay qoladi.
2. Mantiqiy izchillik buziladi. Masalan, *Zavodda paxtadan ip qilinadi*. *Terimchi paxtani paxta terish mashinasida teradi*. Bunday mantiqiy xatolarni o'quvchilar matnni qayta o'qish va tahlil qilish jarayonida oson to'g'rilaydilar.

Xatolarni to'g'rakash va ularning oldini olish. O'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni guruhash, ularning turlarini aniqlash va har bir xatoning kelib chiqish sabablarini o'rganish asosida nutqqa oid xatolarni to'g'rakash va ularning oldini olish tizimi ishlab chiqiladi:

- 1) nutqqa oid xatolarni o'quvchilar daftarida to'g'rakash;
- 2) sinf o'quvchilari uchun umumiyligiga bo'lgan nutqqa oid xatolar ustida sinfda ishslash (buning uchun darsning 15-20 minutlik qismi ajratiladi va tekshirilgan insho va bayon tahlil qilinadi, o'quvchilarning yo'l qo'yilgan xatoni mustaqil ravishda topishga va uni to'g'rakashga imkon beriladi);
- 3) ayrim individual xatolar ustida darsdan tashqari vaqtda ishslash, xatoni topish, tushuntirish va to'g'rakash;

Ko'rsatilgan yo'naliishlarning hammasi har bir sinf o'quvchilari uchun, ayniqsa, III va IV sinf o'quvchilari uchun muvofiq keladi.

Nutqiy xatolarni to'g'rakash va oldini olish til ustida ishslash bilan bog'lab, maqsadga muvofiq holda uyushtiriladi.

Nutqiy xatolarni to'g'rakash. O'quvchilar og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'ygan nutqiy xatolarni o'z vaqtida to'g'rilib borish zarur. O'quvchi yo'l qo'ygan xatosining to'g'ri variantini o'zlashtirsin, imkon bo'lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to'g'rakashning eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatosini o'quvchining o'zi to'g'rishi hisoblanadi, agar o'quvchi xatosini to'g'riliy olmasa, uni o'qituvchi to'g'riliydi. Xato turiga qarab to'g'rilanadi: gap yoki so'z birikmasi qayta tuziladi, so'z boshqasi bilan almashtiriladi, zarur so'z qo'shiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi.

Insho yoki bayonni tahlil qilish darsida xatolar ustida ishslash maqsadi uchun darsning ikkinchi qismi – 20-25 minuti ajratiladi. O'qituvchi o'quvchilar insho yoki bayonni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnni o'qib beradi, mazmundagi, mavzuni yoritishdagi kamchiliklar, imloviy va

nutqiy xatolar aniqlanadi. Yo'l qo'yilgan xatoni to'g'rilash yo'li tushuntiriladi. SHundan so'ng xato ustida birgalikda ishlanadi: o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatoning bir turini to'g'rilash yuzasidan topshiriq beradi: «Noo'rin ishlatilgan so'zni boshqasi bilan almashtiring». Xatosi bor matnni o'qib yoki yozib beradi, o'quvchilar yo'l qo'yilgan xatoni topadilar, maqsadga muvofiq so'z bilan almashtirib, uni to'g'rilaydilar va tushuntiradilar.

Ayrim o'quvchilar yo'l qo'ygan individual xatolar darsdan tashqari vaqtida, qo'shimcha mashg'ulot jarayonida to'g'rilanadi. O'quvchi bilan individual suhbatda ham, sinfda jamoa bo'lib ishlash jarayonidagi kabi bolalarning aqliy faolligiga, ya'ni u xatosi nimadaligini tushunibgina qolmay, balki uni to'g'rilashi va tushuntirishiga erishish muhimdir.

Grammatikaga oid mavzuni o'rganishda o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lган xatoning oldini olish uchun mazkur mavzu ularga qanday imkoniyatlar yaratishi tushuntiriladi. Masalan, «Olmosh» mavzusini o'rganganda, kishilik olmoshlarining takrorlangan so'zlar o'mida qanday ishlatilishi o'quvchilarga misollar bilan tushuntirilsa, ular ham insho yoki bayon yozishda shunga rioya qiladilar.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyat quyidagi **uch asosiy** omilga bog'liq:

- 1) so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, o'quvchilarning ko'p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit;
- 2) bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi;

Orfografik ko`nikmalar o`quvchilarda asta- sekin shakllanib boradi. O`quvchilar qoidalarni turli xil mashg`ulotlar: ko`chirib yozuv, mashq ishslash, grammatik va orfografik tahlillar orqali o`zlashtirib oladi.Ushbu qoidalarni o`zlashtirib olishda ham bolalarning ixtiyoriy diqqatini bir nuqtaga toplash talab qilinadi.Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar juda ham o`yinlarni yaxshi ko`rish bilan birga, o`yin

orqali ba`zi grammatik orfografik qoidalarni juda tez o`zlashtirib oladilar va uni uzoq vaqt esda saqlab qolishadi. Shu tufayli orfografik qoidalarni o`zlashtirib olishda ham turli xil o`yinlardan foydalanish o`qituvchiga katta yordam beradi.

### **Kim to`g`ri yozadi o`yini**

Bu o`yinni tashkil qilish uchun ma`lum bir orfografik qoidaga mos so`zlar tanlab olinadi. So`zlarning yozilishi bo`yicha orfografik qoida takrorlanib o`quvchilarning xotirasida tiklanadi. Har bir grammatik o`yinni o`tkazishda o`qituvchi ma`lum bir orfografik qoidani mustahkamlashni nazarda tutadi. Sinf o`quvchilari ikki guruhga bo`linadi. Xattaxtaga har bir guruhdan bittadan o`uchi chiqariladi. O`qituvchi avvaldan tayyorlab kelgan so`zlarni yod aytib yozdiradi. Ikki o`quvchi xattaxtaga yozadi. Qolgan o`yin ishtirokchilari esa mustaqil ravishda o`z daftarlariiga yozib boradi. Agar o`qituvchi tomonidan u va o` unlilarining yozilishini mustahkamlash maqsad qilib qo`yilgan bo`lsa, shu qoidaga oid bitta so`zni aytadi, o`quvchilar xattaxtaga yozib bo`lgach, qolgan so`zlarni ham xuddi shunday yod aytish bilan yozdiradi. *Tuxum, uzum, do`stlik, bo`ron, bo`ston kabi.* Xattaxtaga yozilgan so`zlar o`qituvchi rahbarligida tekshiriladi. O`quvchilar xatoga yo`l qo`yishgan bo`lsa ular tuzatiladi. So`zlarni to`g`ri yozgan o`quvchilar har bir so`z uchun bittadan ball oladi. Yashil rangli kartondan kvadrat usulida tayyorlangan shakl beriladi. Kim ko`p kartochka olsa, o`sha g`olib hisoblanadi va rag`batlantiriladi.

Xuddi shunday o`yinni so`z oxirida qator kelgan jarangsiz undosh tovushlarning yozilishi bo`yicha o`tkazish ham mumkin. Buning uchun ikki o`quvchi ikki guruhdan xattaxtaga chiqariladi. Ushbu orfografik qoidaga xos beshta so`z aytildi. Ikki o`quvchi berilgan so`zlarni ustun qilib xattaxtaga yozadi. Qolgan o`quvchilar shu so`zlarni daftarlariiga yozib boradi.

*xursand*

*farzand*

*baland*

*rost*

*xursand*

*farzand*

*baland*

*rost*

*daraxt*

*daraxt*

### **Bilag`on boshliqlar o`yini**

Bu o`yin ham orfografik o`yinlar turiga kiradi. O`quvchilar odatdagiday ikki guruhga bo`linadi. Har bir guruhning sardori belgilanadi. Ana shu guruh boshliqlari xattaxtaga chiqariladi. Guruh boshliqlari odatda a`lochi o`quvchilar bo`lishadi.O`yinda o`quvchilarning ana shu tomoni hisobga olinib, o`nta so`z xattaxtaga yoziladi.

*taassuf*

*mitti*

*mukammal*

*ikki*

*minnatdor*

*tabassum*

*tanaffus*

*xokkey*

*tashabbus*

*tennis*

Yuqorida berilgan so`zlarni har bir boshliq ustun shaklida yozadi. So`zlarining yozilishi kuzatiladi. Xatolar guruh bo`yicha hisoblanadi. Har bir guruhning boshlig`i yo`l qo`ygan xatolarni sanaydi.Brinchi guruh boshlig`i o`nta so`zdan ikkita xatoga yo`l qo`ygan bo`lsa, unga sakkiz ball beriladi. Har ikkala guruh boshliqlari so`zlarni tekshirib xatolarni sanab boradilar. To`g`ri yozilgan har bir so`z uchun ball beriladi. Agar biror guruhning o`quvchilari bitta ham xatoga yo`l qo`yishmagan bo`lsa, u holda qo`shimcha tarzda yana beshta so`z yoziladi. Oxirida g`olib guruh aniqlanadi va rag`batlantiriladi.

### **To`g`ri yozdim, yulduz oldim o`yini**

Bu o`yin ham orfog`rafik o`yinlar sirasiga kiradi. Uni o`tkazish usuli ham deyarli bir xil. O`quvchilarning yozishi uchun beshta so`z tanlab olinadi.Har bir so`z uchun bittadan ball belgilanadi.Xattaxtaning yuqori qismiga sakkiz qirrali yulduz osib qo`yilgan.Qaysi guruh xatosiz yozsa sakkiz qirrali yulduzni oladi. O`yinni boshlashda sinfdagi partalarning qatorlar soniga qarab ikki yoki uch o`quvchi xattaxtaga chiqariladi.O`qituvchi o`yin uchun tanlagan so`zlarni aytib turadi. O`quvchilar yozishadi. O`yin shu tariqa ikki -uch marta takrorlanadi. Har marta o`quvchilar xattaxtaga chiqib yozishganda guruhlarning ballari yozib

boriladi. O`yining yakunida qaysi guruh g`olib deb topilsa o`sha qatordagi o`quvchilarning birinchi partasiga yulduzcha qo`yiladi.

<i>avlod</i>	—	<i>avlod</i>
<i>hisob</i>	—	<i>hisob</i>
<i>tarkib</i>	—	<i>tarkib</i>
<i>paroxod</i>	—	<i>Paroxod</i>
<i>janob</i>	—	<i>janob</i>

### **Kim ko`p baliq tutadi o`yini**

Bu o`yin kichik maktab yoshidagi o`quvchilar orasida juda katta qiziqish uyg`otadi. O`yinni tashkil qilishda sinf partalarining qatoriga qarab o`quvchilar guruhlarga bo`linadi. Har bir guruhdan bittadan bola xattaxta yoniga chiqariladi. Mashg`ulotning bu turi o`quvchilarning yakka tartibdagi bilimlarini aniqlashga yordam beradi. Bolalar konvert ichiga solib qo`yilgan baliqchalarни olishadi. Baliqchalarining rasmi bor qog`ozning orqa tomoniga so`zlar yozib qo`yilgan. O`yinning sharti bir hil bo`lishi lozim. Bolalar konvert orqasidagi so`zlarni o`qib javobini topadi. Baliqchalarining tasviri bor qog`ozning orqa tomoniga yozilgan so`zlarni kuzatadi. O`qilgan mavzularni eslashadi. So`zning ma`nosini aytib, bo`g`inlarga ajratadi. Ushbu so`zdagi unli va undosh tovushlarning talaffuzini aytib bera olgan guruh o`quvchilari g`olib hisoblanadi. *Bug`doy* so`zida 2 bog`in, 6 harf va 6 tovush bor. *U, o* unli harflar; *b, g`, d, y*, undosh harflar hisoblanadi. Bu o`yin o`quvchilarining ona tilidan berilayotgan bilimlarini qancha o`zlashtirib olayotganini aniqlash imkonini beradi. Agar guruhlarning xattaxtaga chiqqan o`quvchilaridan biri to`liq javob berolmasa, javobni ushbu guruhning boshqa a`zolari to`ldirishi mumkin. Lekin 1 ball kamayadi.

O`yin uchun so`zlar: *bahor, qizlar, sariq, o`qidi, buloq*.

### **Qatorlashgan tovushlarni top o`yini**

So`z orasida qator kelgan bir hil undosh tovushlarni kichik maktab yoshidagi o`quvchilarining o`zlashtirib olishlari ba`zi bir qiyinchiliklarni tug`diradi. Ana shu

chigalliklarni bartaraf qilish bir qator qiziqarli mashg`ulotlar va grammatik o`yinlar uyushtirishni taqozo qiladi. Bu o`yinni o`tkazish uchun ikki o`quvchi chiqariladi, xattaxta ikkiga bo`linib, ikkala o`quvchiga ham alohida harflar beriladi. O`quvchilarning har biri belgilangan miqdorda qator kelgan bir hil undosh tovushli so`zlarni topib yozishi kerak. Bu o`yin o`quvchilarning ushbu harflar imlosi va talaffuzuni yaxshi egallab olish imkonini beradi.

<i>L</i>	<i>T</i>
1. <i>pill</i>	1. <i>katta</i>
2. <i>til</i>	2. <i>latta</i>
3. <i>izilla</i>	3. <i>attang</i>
4. <i>illat</i>	4. <i>patta</i>
5. <i>kallak</i>	5. <i>shatta</i>
6. <i>kalla</i>	6. <i>xattot</i>

Agar o`quvchilar so`z o`rtasida qator kelgan bir hil undosh tovushli so`zлами topishga qiynalib qolishsalar, o`yinni guruhlar orasida o`tkazish maqsadga muvofiq bo`ladi. Bir necha bor shunday o`yinlar o`tilgandan keyin yakkama - yakka o`quvchilar orasida musobaqa tarzida uyushtirish yaxshi natija beradi.

### Tushurilgan tovushni top

Ushbu o`yin ham tovush ustida o`tkaziladigan mashg`ulotlar turiga kiradi. O`quvchini fikrlashga, o`ylashga, tovushlarni taqqoslab tez xulosa chiqarishga kuzatuvchanlikka undaydi. Bolalarining o`yinga to`la kirishib ketishlarini ta`minlash uchun dastlab juda oddiy shakllardagi o`yinlar o`tkaziladi va o`quvchilarning faolligi ta`minlanadi.

**I.** 1) ol.....a (m)-olma, a....or (n)-anor,

u....m (z,u), uzum, g`i...ak (l, d, i, r)- g`ildirak

2) n....k-(nok), ol...ri- (olxo`ri), b...dom (bodom), za...od- (zavod), da....as (damas)

Dil....ra (Dildora), U...da- (Umida)

### Zarur harfni topib qo`y o`yini

O`yinning ikkinchi bosqichi bir oz murakkab bo`lib, o`quvchilarning turli xil tovushlardan bittasini tanlab olishlari talab qilinadi. Bu o`yin o`quvchini har bir tovushni o`ylab ko`rishga, so`zning leksik ma`nosini anglab olishga va kerakli tovushni tanlab qo`yishga o`rgatadi.

1. da.... tar (a, o, s, f, k)-daftar,  
ma....don (o, y, sh, k, g^, l) maydon,

Qu....on (y, o, sh, q, r) –quyon

2. g`il....irak (d, m, s, z)- bed....zor (a, s, y, g^)  
fo.....us (m, n, s, l)-fonus,

ma....ematika (a, o, u, t, i)-.....,

o`q...tuvchi (s, u, i, a)-.....,

ba...mal (q, k, x, h).....,

bu`....oq (s, l, o, k).....,

O`t....oq (l, sh, k).....

### **Qaysi tovush yetishmaydi o`yini**

Ushbu o`yin ham “Zarur harfni topib qo`y” o`yiniga bir oz o`xhash bo`lib, bolalarni ko`proq fikrlashga, faollik ko`rsatishga undaydi. O`quvchi matnda yetishmaydigan tovushni topishi kerak.O`sha tovushni topib o`rniga qo`ya olsa o`ylangan so`zni tuzadi. Kim barcha berilgan tovushlarni qatnashtirib, tushib qolgan tovushni o`z o`rniga qo`ygan holda yangi so`zlar hosil qilsa, o`sha o`quvchi g`olib deb topiladi va rag`batlantiriladi. O`yinni butun sinf o`quvchilariga berish ham mumkin. Uning qiziqarliroq bo`lishi uchun bolalarni guruhlarga bo`lib musobaqa tarzida o`tkazsa ham bo`ladi.

- I. 1) ch, u, m, o, i, (l)- chumoli; b, o, d, i, ng (r)- bodring; k, a, a, l, a, k (p)- kapalak;

2) q, a, h, a, m, o, n, -(qahramon); s, r, g`, a- (sirg`a).

q, o, i, q (qoshiq); q, u, sh (quyosh);

g, i, l, m (gilam); s, b, o, q (saboq).

### **Adashgan tovushning o`rnini top o`yini**

Bu o`yinda so`zlardagi harflar aralashtirib beriladi. Aralash berilgan harflardan biri adashib qolgan hisoblanadi. O`yin ishtirokchilari ana shu harfni topib o`rniga qo`yishsa lug`aviy ma`noli so`z hosil bo`ladi. Ushbu o`yin o`quvchilarni har bir tovush va harfga nisbatan ijodiy munosabatda bo`lishga undaydi. O`yin asta-sekin murakkablashtirib boriladi. O`yinni yakkama-yakka va o`quvchilarni guruhlarga ajratib o`tkazish mumkin.

I. 1. n,a,o (ona); o,n,n (non); ayiqq (qayiq);

sala (asal. yiqa (ayiq); ovunq (qovun);

2. olab (bola); `zama (A`zam); o`std (do`st);

artap ( parta); monyo- (yomon);

II. 1. o, a, l, l (lola); b, b, g`, n, o, o (bog`bon);

y, d, j, a, i (jiyda); i, p, y, a, l, o (piyola);

2. l, a, i, sh, (ishla); ch, e, i, k (echki);

t,a,r,f,a,d (daftar);

3. a, d, d, o, j (ajdod); a, b, l, o (bola);

v, a, e, s,t, o, (avesto); i, ya, n, t (niyat);

### **Qochoq boshliqni top**

Bu o`yinda o`quvchining tovushlar va harflar yuzasidan olgan bilimlari mustahkamlanadi. Bosh va kichik harflarning ishlatilishi haqidagi nazariy bilimi takrorlanadi. O`yin sharti quyidagicha tushuntiriladi. O`qituvchi ko`chma

xattaxtaga birinchi harflari tushirib qoldirilgan so`zlarni yozib qo`yadi.O`yin qatnashchilari kerakli harflarni topib so`zni to`liq yozadi. Berilgan so`zlar: ..... arg`ona, .....uzrabet, ...erabod, .... erma, .....oyda,..... aram, ..... iziriq.

Javob qo`yidagicha bo`ladi: *Farg`ona, Muzrabot, Sherabod, ferma, foyda, karam, Qiziriq*. Ushbu javoblardagi Sherabod va Muzrabod so`zlarining ikki xil shaklda yozilishi o`quvchilarda juda katta qiziqish uyg`otadi. O`qituvchi bolalarning mustaqil munozaralarini uyushtirib, *obod* va *rabot* so`zlari (toponimlar tarkibida kelgan indikatorlar) ning ma`nosini tushuntiradi. Natijada bu so`zlarning yozilishi o`quvchi xotirasida abadiy saqlanib qoladi.

### **2.3. Tajriba-sinov ishlari**

Men amaliyot davrida uzoq yillardan buyon ishlab kelayotgan boshlang’ich sinf o’qituvchisi Malikaxon Mahmudova ish tajribasi o`rgandim. Ustoz “Xatolar ustida ishlash” darslarini samarali usullardan foydalanib, kreativ yondashgan holda o’tkazadi. Xususan, u yuqorida mutaxassis ko’rsatgan barcha tavsiyalardan foydalanish bilan birga, o’zi yaratgan usullarni ham qo’llab kelmoqda.

Jumladan, kuzatishlarim davrida 4-sinf o’quvchilari bilan 3 chorakning birinchi oyiga qadar 8 ta insho (ona tili va o’qishdan) va 4ta bayon yozidi. Insho va bayonda, muallif gapi va ko’chirma gaplarni yozishda o’quvchilar tinish belgilarida xato qilishi aniqlandi. Buni to’g’irlash uchun xatolar ustida ishlash soatlarini kutib o’tirmasdan, ustoz muntazam ravishda “O’qish kitobi”dagi matnlar asosida “Qayta kuzatish mashqi”ni o’tkazib boradi. Buning uchun ikki kishining dialogi berilgan matnlarni o’tganimizda, matnni o’qib-o’rganib bo’lgach, o’quvchilardan matnda qaysi mavzuga doir imlo belgilari borligini so’raldi. Shundan so’ng o’quvchilar dastlab daftarlariiga muallif gapi va ko’chirma gaplarni ajratib yozishadi, so’ng esa imlo qoidasini yanada yaxshi o’zlashtirish uchun undagi egalar o’rniga boshqa kishilik olmoshlarini qo’yib mustaqil yozishadi. Malika Mahmudova 1-2- sinf o’quvchilarida grafik va orfografik xatolar, 3-4-sinflarda esa tinish belgilari, qo’shma va murakkab so’zlar hamda ularning yozilishiga doir imlo xatolar ko’proq kuzatilishini inobatga olib, o’qish darsidagi barcha matnlarga yuqorida aytib o’tganidek, “Qayta kuzatish mashqi” asosida yondashadi. Natijada 4- sinfga kelib, insho va bayonni 32 nafar o’quvchining 21-22 nafari a’lo, 10-11 nafari esa yaxshi baholarga yozishmoqda. Pedagogning 1-2-sinf o’quvchilarida uchraydigan grafik va orfografik xatolarni tuzatishga xizmat qiluvchi **“Rasmlar so’zlaganda” video lug’at diktanti** Respublika ta’lim markazi tomonidan ommalashtirilgan. Uni quyidagicha o’tkazish mumkin. O’qituvchi monitorda yozilishi murakkab bo’lgan narsa-buyumlarning rasmini ko’rsatadi. O’quvchilar esa ularning nomini daftarlariiga to’g’ri yozishga harakat qilishadi. Rasmlarning ko’rsatib va yozilib bo’lingach, so’zlarning to’g’ri yozilgan shakli

monitorda navbat bilan namoyish etiladi. O'quvchilar esa unga qarab o'z xatolarini to'g'rilashadi. Maskur usulni barcha so'z turkumlarga moslashtirgan holda o'tkazish mumkin.

**“Harf cassalari”dan zamonaviy usulda foydalanish ham mumkin.** Uzoq yillardan buyon pedagoglarimiz so'zlarni to'g'ri yozishga o'rgatish uchun foydalanib kelayotgan ko'rgazmali quollardan biri bu – harf cassalaridir. Ko'pincha harf cassasi sinf doskasi yonida osilib turadi va o'qituvchi darsda javob bergen o'quvchiga mazkur harf cassasidan foydalanib, biror bir so'zni yozib berishni so'raydi. Odatda, u 1-2- sinflarda ko'proq qo'llanadi. Ammo amaliyot davrida maktab o'qituvchisi Mukambar Rixsiyeva imlo savodxonligini o'qitish maqsadida ana shu harf cassalarini sinfdagi har bir o'quvchiga joriy etgan. Bunda muallima har bir o'qish va ona tili darsida “Harf cassasi”dan foydalanib, 5 daqiqa “To'g'ri yozuv” mashqini o'tkazadi. Mashqda har bir o'quvchi oldiga harf cassasini oladi va o'qituvchi tomonidan aytilayotgan bo'g'in va sodda so'zlarni (1-2-sinfda), shuningdek, yozilishi murakkab bo'lgan so'z va gaplarni (3-4-sinflarda) yozadi. O'quvchilar so'zlarni yozayotganida o'qituvchi partalar oralab yuradi va har bir o'quvchining ish jarayonini, qanday xatoga yo'l qo'yayotganini kuzatadi. Xatoga yo'l qo'ygan o'tsuvchilar doskadagi “Harf cassasi”da so'zni qaytadan to'g'ri yozib berishadi. Bu usulning qulayligi shundaki, avvalo, o'quvchi ustoziga aytayotgan so'zni eshitadi, his qiladi va uni ko'rib turgan harflari yordamida o'z qo'li bilan yozadi. Bu, birinchidan, mazkur so'zning yozilish tartibini xotirasida yaxshi saqlab qolishga yordam beradi, ikkinchidan esa, pedagogning bir vaqtning o'zida sinfdagi barcha o'quvchilar bilan ishlashiga sharoit yaratiladi. Hozirda maxsus maktab o'quv-qurollari sotiladigan ko'pgina do'konlarda bunday “Harf cassa”larini arzon narxda sotib olish mumkin.

Shuningdek amaliyot davrida o'qituvchilar xatolar ustida ishslash ishslash borasida ayrim imloviy mavzular ustida qayta suhbat o'tkazish, analistik va sintaktik mashqlarni tashkil etishni maslahat berdi.

Kerakli usullar qo'llanilishi davomida o'quvchilarning imloviy savodxonligi darajasi

maxsus diktant matnlarini yozdirish bilan tekshirib borildi. Natijada, tajriba o'tkazilgan sinflarda 40—47 foiz ijobiy o'zgarish yuz berdi. Amaliyotda pedagoglarga tavsiya qilingan usullar quyidagilardan iborat.

### **1.Grafik xatolarni tuzatish mashqlari:**

- kartochkaga harf elementlari tushirib qoldirilgan 8-10 tadan so'z yozilib, o'quvchilarga tarqatiladi. O'quvchilar esa tushirib qoldirilgan harf elementlarini o'z o'rniga qo'yib, daftarlariga ko'chirib yozadilar;
- yana shunday kartochkalarga harf elementlarini noto'g'ri qo'yib, o'quvchilarga ularni to'g'rilib ko'chirish vazifasi topshiriladi;
- doskada harflari tushirib yozilgan murakkab so'zlar «Qaysi qator oldin yozadi?» Ilmiy o'yinni o'tkazish orqali mustahkamlanadi.

### **2. Orfografik xatolarni tuzatish mashqlari:**

- o'quvchilarga jarangli undosh bilan tugagan so'zlarni jarangsiz undosh tarzida o'qib, lug'at diktanti o'tkazish;
- tarkibida ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlaming yarmini aytib, qolgarani o'quvchi yozishini ta'mmfaydigan lug'at diktanti o'tkazish. Masalan, *al-alla*, *el - ellik*, *is- issiq*, *ar-arra* kabi.

### **3. So'z va bosh harflarni tuzatish mashqi:**

So'zlardagi xatolarni tuzatish uchun o'quvchilarga shu so'z istitirokida gap yozdirish; kichik harf bilan yozilgan so'zlarni esa ana shu so'zning kichik va bosh harflar bilan o`zgaradigan shakllari misolida gaplar tuzish, Masalan,

*O'l kamizga bahor keldi. Men Bahor ko 'chasida yashayman.*

*Ona aziz inson. Biznikiga Aziz keldi. Sayyoh orolda qoldi. O'qituvchi Orol dengizi haqida gapirib berdi.*

### **4. Shevaga oid so'zlarni tuzatish mashqi:**

Bu turdag'i xatolarni tuzatish uchun «**Chalg'itma diktant**» dan foydalanish yaxshi samara beradi. O'tkazilgan tajribalarda o'quvchilar diktant paytida shoshilmay, fikrlab, sheva bilan adabiy tilning farqini anglagan holda matinni yozishga harakat qilishgan. Chalg'itma diktant 3- va 4- sinflarda olinishi mumkin. Chunki bu sinflarda imloviy jihatlarni qamrab oluvchi dars mavzulari ko'proq. Chalg'itma diktant

o'tkazilishidan oldin o'qituvchi diktantni sheva asosida aytib berishini, lekin undagi so'zlarni o'quvchilar imlo qoidalariga muvofiq yozishlari lozimligini uqtiradi. Masalan, «Diktantlir to'plami» dagi «Qurbaqa» matni Andijon shevasida quyidagicha aytib berilishi mumkin:

*Qurbaqa foydali* jonivor. Kunduzi qurbaqa biror *namraq* joyda yotadi.

- U kech kirgandagina ovga chiqib, *turliy zararliy* hasharotlami *tutub* yeysi  
Bunday diktantlar chog`ida o'quvchilar bitta matndan besh-oltita so'zni to'g'rilib  
yozishi natijasida muayyan darajada irnloviy ko'nikmaga ega bo'lib boradilar.  
Mazkur diktant, ayniqsa, bayon va inshodan oldin o'tkazilsa, bolalar shevaga oid  
xatolarga yo'l qo'ymay yozadilar. Diktant o'tkazilishi dayomida o'qituvchi  
shoshilmasligi, chalg'itadigan so'zlarni to'g'rila masligi darkor. Diktantni tekshirish  
o'quvchilar bilan birga olib boriladi. Bunda matn doskaga ilinib, o'quvchilar yo'l  
qo'ygan xatolarini o'zлari topib tuzatadilar.

## X U L O S A

Boshlang'ich ta'lim davri o'quvchilar uchun intellektual bilimlar shakllanishining muhim davri bo'lib, bu davrni, bu jarayonni to'g'ri tashkil qilish katta ahamiyatga ega. Yozuv va husnixat darslarida yozuv malakalarini shaklantirish, o'quvchilarning yozuv nuqsonlarini bartaraf etish juda katta ta'limiylar va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki o'quvchi har qanday bilimni o'zlashtirish jarayonida faqat og'zaki nutqqagina tayanmaydi, balki axborotlar, fikrlar, mashqlar, misol va masalalar, qoida va ta'riflar yozma nutq orqali ifoda qilinadi. Shu bilan birga, yozuv darslarida o'quvchilarni yozuvga o'rgatish orqali go'zallik va nafosat tarbiyasini ham shakllantirib borish mumkin. O'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirishda turli kreativ usullarni qo'llash yaxshi natija beradi. Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash jarayonida men ayrimlarini qo'llab ko'rdim. Ulardan 3x3 so'z o'yini ham o'g'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga hissa qo'shadi. 3x3 so'z o'yini. 1-variant. 3 ta harfdan iborat so'zning har bir harfiga bittadan so'z topish.

NUR

N- nihol

U- uzum

R- rayhon

2-variant : "NUR" bunda har bir harfga 3 harfdan iborat so'z topish

N-non

U-uka

R-rom

3-variant. Oxirgi tugagan harfiga 3 harfli so'z topish

N-non

U-uka

R-rom

## M-MOSH

M-moy

O-onas

SH-shar

RIM va hokazo...

” KIM KO‘P SO‘Z TOPADI”- didaktik o‘yini ham lug‘at bilan ishlashga va so‘z boyligini oshirishga undaydi.

Shartli ravshda unli harflarni aylana shaklida, undoshchlarni uchburchak deb belgilaymiz va ana shu belgilar bo‘yicha tuzilgan so‘zlardan topiladi. Ma’lum vaqt oralig‘ida kim ko‘p so‘z topishi aniqlanadi.



O‘ Z    B    E    K    I    S    T    O    N

Shu tariqa yuqoridagi struktura bo‘yicha so‘zlar topiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang`ich sinf o`quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish, xatolar ustida ishlashga kreativ-ijodiy yondashganda, yuqoridagi barcha usul va tajribalar bilan tanishish asnosida ularni muntazam va izchil qo’llash zarur. Onda-sonda yoki mavzu to’g’ri kelganidagina ularga murojaat qilish kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, o’qituvchilarimiz o`quvchilarining imlo savodxonligini oshirishni istar ekan, umrboqiy haqiqat – ularni badiiy kitob o’qishga undashdan charchamasligi va yuqoridagi kabi rang-barang va zamonaviy pedagogik usullarni tegishli darslarda muntazam izchillik asosida olib borishi kerak. Shundagina o’qituvchilarimiz uning samarasini o`quvchilarining ravon nutqi va xatosiz yozuvlarida ko’rish baxtiga erishishadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Sh. M. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat`iy intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. – T.: O`zbekiston. 2017.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi Farmoni //2017 yil 7 fevral.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” PQ-2909-sonli Qarori //2017 yil 20 aprel.
4. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.:O`zbekiston. 2011. - 440 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch .-T.: O`zbekiston. 2008 yil.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.:Sharq.1997. 64 b.
7. Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori . T.: “Sharq” 1998 y -64 b.
8. A.Avloniy. «Turkiy guliston yohud axloq» T. O`qituvchi. 1999 y.
9. Umarova M, Sh.Hakimova. O`qish darslari (3-sinf uchun). –T.: Cho`lpon, 2016. – 126 b.
- 10.Umarova M., Sh.Hakimova. O`qish kitobi (3-sinf uchun darslik). – T.: Cho`lpon, 2016. – 240 b.
11. Davlat ta`lim standarti. –T.: Yangiyo`l poligraf service, 2017. – 42-46 b.
- 12.Uzviylashtirilgan o`quv dasturi. –T.: Yangiyo`l poligraf service, 2012. – 46-68 b.G`afforova T., G`ulomova X. 1-sinfda o`qish darslari. –T.: Sharq, 2016. – 126 b.
- 13.Kaykovus. Qobusnomalar. -T.: Meros 1992 y.
- 14.Pedagogika. Mavlonova R. Taxriri ostida. T. O`qituvchi. 2002 y.

15. To'raeva O «Oilada bola tarbiyasi» T. O'qituvchi 1995 y.
16. Matchonov S. va boshq. O`qish kitobi (4-sinf uchun darslik). –T.: Yangiyo`l poligraf servis, 2016. – 266 b.
17. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. (muammoli ma'ruzalar matni). N. 2004.
18. Munavvarov A.Q. «Oila pedagogikasi» T.: O'qituvchi. 1998 yil.
19. Inomova M.O. «Oilada bolalarning ma'naviy ahloqiy tarbiyasi» T. 1999 yil.
20. Inomova M.O. «Oilada bolalarni ma'naviy ahloqiy tarbiyalashda milliy qadryatlar» T.fan. 1995 yil.
21. Yuldasheva D. Bolalar folklorida zoonimlar. filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. -T.2007
22. Yuldasheva D. Kichik yoshdagি bolalar nutqini rivojlantirish-Fang`ona. 2006
23. Sulton I. Adabiyot nazariyasi.–Toshkent: Adabiyot va san`at, 2000.
24. Sayidrahimova N. Maktabgacha yoshdagи o'zbek bolalar nutqining lingvistik xususiyatlari. filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – t., 2004.6-8.
25. O`qish kitobi (4-sinf uchun darslik). –T.: Yangiyo`l poligraf servis, 2009. – 266 b.
26. O`zbekiston Respublikasining “Bola xuquqlari kafolatlari to`g`risida”gi qonun T. O`zbekiston. 2004 y.
27. O`zbek maktablarida ona tili ta`limi Konsepsiysi // “Til va adabiyot ta`limi” jurnali. 1994. 1-2-qo`shma sonlar.
28. O`zbek tilining imlo lug`ati. Tuzuvchilar: Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev. – T.: O'qituvchi, 1995. -288 b.
29. O`zbekiston Respublikasining “Bola xuquqlari kafolatlari to`g`risida”gi qonun T. O`zbekiston. 2004 y.
30. O`zbek maktablarida ona tili ta`limi Konsepsiysi // “Til va adabiyot ta`limi” jurnali. 1994. 1-2-qo`shma sonlar.

- 31.O`zbek tilining imlo lug`ati. Tuzuvchilar: Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev. – T.: O`qituvchi, 1995. -288 b.
- 32.Qosimova Q. “2-sinflarda ona tili darslari”, T. “O`qituvchi”, 1998 yil.
- 33.Qodirov U.Z., Abdumajidov A.A., Askaryants V.P. Bolalar fiziologiyasi. – T.:Abu Ali Ibn Sino, 1999. –B.195-197.
- 34.G`afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O`qish kitobi (1-sinf uchun darslik). – T.: Sharq, 2009. – 127 b.
- 35.G`afforova T., Qurbonov A., Godfri E. Ta`limning ilg`or texnologiyalari. - Qarshi, Nasaf, 2003. -112 b.
- 36.G`ulomov A., Ne`matov H. Ona tili ta`limi mazmuni. –T.: O`qituvchi, 1995. –125 b.
- 37.G`ulomov A.Q. O`zbek maktablarining IV sinflarida ona tili darslarida o`quvchilarning mustaqil ishlari. Ped. fanl. nomz. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T.: 1975. -189 b.
- 38.G`ulomov A.Q. Ona tili darslarida o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish. –T.: O`qituvchi, 1987. -156 b.
39. G`ulomov A.Q. Ona tili o`qitish prinsiplari va metodlari. –T.: O`qituvchi, 1992. -90 b.
40. G`ulomov A.Q., Qobilova B. Nutq o`stirish mashg`ulotlari. –T.: O`qituvchi, 1995. -158 b.

Internet saytlari:

41. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)      [www.edu.uz](http://www.edu.uz)      [www.nadlib.uz](http://www.nadlib.uz)      (A.Navoiy nomidagi O`z.MK)[www.rtm.uz](http://www.rtm.uz)
42. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz) [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)